




**O`zbekiston Respublikasi Xalq Ta`limi Vazirligi**

**Xorazm viloyati pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti**

**“Til va adabiyot ta’limi” kafedrası**

**ONA TILI VA ADABIYOT FANLARIDAN  
BO`SHLIQLARNI TO`LDIRISH BO`YICHA  
TAVSIYALAR**

**Urganch – 2014 y.**



**2013-2014 o'quv yilining yakunida o'tkazilgan ta'lim sifati monitoringi natijalariga ko'ra o'quvchilarning bilimlarida aniqlangan bo'shliqlar** yuzasidan Xorazm viloyati xalq ta'limi boshqarmasining ta'lim sifati samaradorligiga erishish maqsadida fanlar va sinflar kesimida metodik xat, tavsiya va dars ishlanmalari ishlab chiqish va joylarga yetkazish chora – tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Ushbu belgilangan rejaning ijrosini amalga oshirish uchun VPKQTMOI Til va adabiyot ta'limi kafedrasida ona tili va adabiyot fanidan metodik tavsiya sifatida dars ishlanmalari ishlab chiqildi.

Monitoring natijasida ona tili va adabiyot fanidan quyidagi mavzularni o'zlashtirishda bo'shliqlar mavjudligi aniqlangan:

Ona tili fanidan 5 –sinf o'quvchilarida qiyinchilik tug'dirgan mavzular “Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi”, “Talaffuz va imlo me'yorlari”, “Urg'u va uning turlari”, “So'zlarning shakl va munosabatiga ko'ra turlari”, “So'roq gaplarning hosil qilinishi” kabi mavzular bo'ldi. 5- sinf o'quvchilaridan nazorat ishlari o'tkazish jarayonida yuqoridagi mavzular bo'yicha berilgan savollarga ko'pchilik o'quvchilari to'g'ri javob bera olmaganligi aniqlandi. Diktant olinganda o'quvchilar ko'proq tutuq belgisining qo'llanilishida, “h” va “x” undoshlarini farqlashda, so'zlarni bo'g'inga ko'chirishda, tinish belgilarni qo'llashda xatoga yo'l qo'yganliklari aniqlandi. Ba'zi bir o'quvchilar diktant uchun maxsus topshiriqlarni,

ya'ni so'zlarni fonetik, so'z tarkibiga ko'ra tahlil qilishda ham xatoga yo'l qo'yishgan.

9- sinf o'quvchilari ona tili fanidan “Qo'shma gap turlari” mavzusini o'zlashtirishda, ayniqsa, ergashgan qo'shma gap turlarini farqlashda xatolikka yo'l qo'yganliklari aniqlandi. O'quvchilar qo'shma gaplarni hosil qilishda bog'lovchilarning qaysi turidan foydalanganini, ularni ma'nodoshi bilan almashtirganda qo'shma gapning qaysi turi hosil qilinishini, ularda tinish belgilarining qo'llanilishi bo'yicha yetarli bilimga ega emasliklari aniqlandi. Ayniqsa, zidlov bog'lovchilari qo'shma gapning qaysi qismida qo'llanilishi va tinish belgilarning ishlatilishida xatolikka yo'l qo'yilgan.

9- sinflarda adabiyot fanidan o'quvchilar g'azalda qo'llangan she'riy san'atlarni topishda qiyinchiliklari, mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlari nomi, uning hajmi, asar mazmuni va mavzusi qanday ekanligini bilmasliklari aniqlandi. “O'tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug' qon” romanlari qahramonlarini ajratishda qiynalganlar. Monitoring jarayonida o'quvchilar “Asrga tatigulik kun” asarining mazmuniga oid savolga javob berishda qiynalganlar.

Ta'kidlash joizki, har bir fanda murakkab mavzular mavjud bo'ladi. Ana shu murakkab mavzularni o'tishning o'ziga xos usullari bilan foydalangan holda dars o'tilganda, o'quvchilarning o'zlashtirilishi kafolatlanadi. Demak, bu mavzularni o'qitishning tegishli texnologiyalarini qidirib topish zaruriyati tug'ildi.

Davr talabi xorijiy texnologiyalarni o'rganish, tajribadan o'tkazish orqali bu texnologiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, yangi samarador texnologiyalarni joriy etish, talabga javob bermaydigan usullardan voz kechish, buning uchun jahon va milliy tajribadan kelib chiqib, o'qitishning o'ziga xos texnologiyalarini yaratish va amaliyotda qo'llash imkonini bermoqda.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda aniqlangan bo'shliqlar yuzasidan Xorazm VPKQTMOI Til va adabiyot ta'limi kafedrasida ona tili va adabiyot fanidan metodik tavsiya sifatida dars ishlanmalari ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan dars ishlanmalari hamda foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati tavsiya sifatida havola qilinadi.


Tayyorladilar:

“Til va adabiyot ta'limi” kafedrasining  
katta o'qituvchilar: Z.Nasretdinova  
N.Sabirova

**Dars: Ona tili****Darsning texnologik xaritasi**

|                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|-------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>MAVZU:</b>                                         | <b>Til va nutq</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>Maqsad va vazifalar</b>                            | <p><b>Maqsad:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-“Til va nutq”, o‘zbek tilining dunyodagi tillar orasida tutgan o‘rni haqida tushuncha berish;</li> <li>-o‘zaro hurmat, hamkorlik tuyg‘ularini singdirish;</li> <li>-og‘zaki nutqni rivojlantirish, fikrini savodli ifodalay olish ko‘nikmalarini shakllantirish.</li> </ul> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularda mavzu asosida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;</li> <li>-ularning bilimini baholash.</li> </ul>                                  |
| <b>O‘quv jarayoni mazmuni</b>                         | -Til va nutq, ularning bir-biriga bog‘liqligi, o‘zbek tili-Davlat tili, ona tlining mavqeyi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>O‘quv jarayonida amalga oshirish texnologiyasi</b> | <p><b>Metod:</b> kichik guruhlarda ishlash</p> <p><b>Usul:</b> induktiv ta’lim</p> <p><b>Shakl:</b> og‘zaki va yozma bayon</p> <p><b>Vosita:</b> darslik, til va nutq haqida ma’lumotlar, rag‘bat kartochkalari</p> <p><b>Nazorat:</b> savol-javob</p> <p><b>Baholash:</b> 5 balli tizim asosida</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| <b>Kutiladigan natijalar</b>                          | <p><b>O‘qituvchi:</b> Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. O‘quvchini faolligini oshiradi. O‘quvchilarga fanga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir darsda barcha o‘quvchilar baholanadi. O‘quvchilar tomonidan darsni mustaqil o‘rganish va uni xotirasida saqlashga o‘rgatadi. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiradi.</p> <p><b>O‘quvchi:</b> til va nutq, ulaning bir-biriga bog‘liqligi yuzasidan yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlarni o‘rganadilar, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘ladi.</p> |
| <b>Kelgusi rejalar</b>                                | <p><b>O‘qituvchi:</b> Pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o‘z ustida ishlash</p> <p><b>O‘quvchi:</b> Mustaqil ishlashga o‘rganadi. O‘z fikrini ravon bayon qila oladi. O‘rganilgan mavzu asosida qo‘shimcha materiallar izlaydi, ularni o‘rganadi. Do‘stona muhitda, hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.</p>                                                                                                                                                                                                                                        |
| <b>Uyga vazifa</b>                                    | “O‘zbekim deb keng jahonga Ne uchun madh etmayin” mavzusida matn tuzish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|                                                       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, davomatni aniqlash. Ta’til taassurotlari bilan o‘rtoqlashish.




Mustahkamlash **“Klaster”** usulida amalga oshiriladi. Unda o’quvchilar 6-sinfda olgan bilimlarini esga oladilar va shodalar ichiga joylashtiradilar. Bu usul o’quvchilarni uch guruhga bo’lingan holatga olib boriladi.

O’quvchilar bilimi umumlashtirilib qo’shimcha ma’lumotlar bilan to’ldiriladi.


**“Topqirlar”** guruhi uchun fe’l so’z turkumi beriladi. Idrok mashqi sifatida fe’l so’z turkumidan ma’lumotlar yozadilar.

**Namuna:**



Har bir soʻzni oʻylab gapir.

**“Bilimdonlar”** guruhi uchun sifat soʻz turkumi beriladi. Guruh birdamlikda sifatlarga taʼrif beradi. Bu “klaster” usulida amalga oshiriladi.



Yaxshi soʻz jon ozgʻi

Yomon bosh qozigʻi.

“**Zukkolar**” guruhi uchun ot soʻz turkumi beriladi. Guruh idrok mashqi sifatida ot soʻz turkumi yuzasidan maʼlumot yozadilar. U quyidagicha boʻlishi mumkin.

Bahor ketma mening yonimdan!

**Oʻqituvchi:** *Tillar ichra boʻlagim-borim,*

*Koʻnglimdagi goʻzal bahorim.*

*Ona tilim, sen jon-u dilim,*

*Chin faxrimsan, mening bahorim.*

Shundan soʻng oʻqituvchi darsning kirish qismida 7-sinfda oʻrganiladigan “Ona tili” kursinig mazmun mundariyasi bilan tanishtiradi.

Yangi mavzu bayoni:

Ona tilimizning nufuzi, mavqei xususida quyidagi savollar tashlanadi:

“**Bilimdonlar**” guruhi

1. Nima uchun tilimiz onaga qiyoslanadi?
2. Tilni kim yaratadi?

“**Topqirlar**” guruhi

1. Ona tilimizning muqaddasligini qanday izohlash mumkin?
2. Davlat tili toʻgʻrisidagi qonun qachon qabul qilingan?

“**Zukkolar**” guruhi

1. Nutqni xalq vujudga keltiradimi, yoki yakka shaxs?
2. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?

Guruhlar javoblari to'liq bo'lmasa, qolgan guruh o'quvchilari to'ldirishi mumkin.

**-1mashq.** Oybekning "Navoiy" romanidan keltirilgan parchada o'zbek tilining tutgan o'rnini haqida guruhlar bahslashadi.

Bahs quyidagicha bo'lishi mumkin.

**Namuna:** A.Navoiy turkiy til rivojiga qanday hissa qo'shdi?

Javob: Alisher Navoiy "Xamsa" dostonini yaratib, turkiy tilda ham shunday mukammal va go'zal asarlar yaratish mumkinligini isbotlab berdi. Hozirda Navoiy bobomiz asarlarini okeanlar osha, qit'alar osha butun dunyo o'qimoqda. Uning ma'naviy xazinasidan bahramand bo'lmoqda:

*Besh asr kim nazmiy saroyini  
Titratadi zanjirband bir sher  
Temur tig'i yetmagan joyini  
Qalam bilan oidi, Alisher.*

Bahs-munozarada qaysi guruh faol ishtirok etsa, o'sha guruhga rag'bat kartochkasi beriladi.

**2-mashq.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning **"Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"** kitobidan olingan parcha o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. Undagi asosiy g'oya haqida guruh sardorlari so'zlab berishadi.

**Namuna:** Bizning tilimiz ming yillar davomida sayqallangan. Tilimizda mehr-oqibat, mehr-shavqat, qadr-qimmat bo'lgan, bir-birini ma'no mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarimiz bor.

Biz bunday iboralarni deyarli har kuni ishlatamiz, chunki bunday iboralarni birorta so'z bilan almashtirish qiyin"-deydi Prezidentimiz.

Guruh sardorlarining fikrlari tinglanib, tahlil qilinadi. G'oliblarga rag'bat kartochkalari beriladi.

O'quchilar bilimini kengaytirish maqsadida "Bilasizmi" ma'lumotlari yetkaziladi.

1. Dunyo tilshunoslarining bugungi tadqiqotlariga ko'ra dunyo bo'yicha taxminan 5621 ta til va sheva bor.

2. Har uch tildan birinchi yozuvi yo'q.

3. Dunyoda so'z jihatdan eng badavlat tillar arab va ingliz tillaridir.

4. Gvineyada mahalliy Taki tilida bor-yo'g'i 340 ta so'z bor xolos.

5. Hozir rasmiy tan olingan 6 ta xalaqaro til bor: ingliz, ispan, arab, rus, xitoy, fransuz tillaridir.

6. Eng so'zi uzun til Chukotkadagi eskimoslar tilidir.

7. O'zbek tili XI asrdan mustaqil til sifatida shakllana boshlagan.

8. XIV asrda umumxalq o'zbek adabiy til-turkiy til vujudga keladi.

9. 1277-yilda elxoniylar turkiy tilni muhofaza qiluvchi dastlabki farmonni e'lon qildi.

10. 1485-yilda Husayn Boyqaro turkiy himoya etib maxsus farmon qabul qilgan.

11. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.

12. Qonunning birinchi moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili o'zbek tilidir."

13. O'zbekiston Markaziy Osiyoda umumta'lim maktablari uchun 7 tilda darsliklar chop etuvchi yagona mamlakat.

**3-mashq.**

Bu masqni bajarishda "Ikki qismli kundalik" usulidan foydalaniladi. Bu topshiriqlar o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini o'qituvchi ulug' ajdodlarimizning til haqidagi fikrlaridan kundalikning birinchi qismiga matn sifatida beriladi. Guruhlar mulohaza yuritib, kundalikning ikkinchi qismiga izohini yozadi.

|   |                                                                 |  |  |
|---|-----------------------------------------------------------------|--|--|
| 1 | Shoir Abdulla Oripov: "Til mustaqilligi -el mustaqilligi demak" |  |  |
|---|-----------------------------------------------------------------|--|--|

|   |                                                                                                            |  |  |
|---|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|
| 2 | “Har bir millatning borligini ko’satadurg’on oynasi hayoti-bu til va adabiyotidir”, -degan Abdulla Avloniy |  |  |
|---|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|--|

“Topqirlar” guruhi

|   |                                                                                        |  |  |
|---|----------------------------------------------------------------------------------------|--|--|
| 1 | Insonni so’z ayladi judo hayvondin,<br>Bilkim guhari sharifroq yo’q ondin.<br>A.Navoiy |  |  |
| 2 | “Milliy tilni yo’qotmak millatning ruhini yo’qotmakdur”.<br>A.Avloniy                  |  |  |

“Zukkolar” guruhi

|    |                                                             |  |  |
|----|-------------------------------------------------------------|--|--|
| 1  | “Barcha fazilatlar boshlanishi tildir”<br>Mahmud Koshg’ariy |  |  |
| 2. | “Adablar boshi tildir”<br>Ahmad Yassaviy                    |  |  |

**“Ikki qismli kundalik** “metodi javoblari tahlil qilinadi. Javoblar umumlashtiriladi., g’oliblar aniqlanadi.

**O’qituvchi:** Aziz o’quvchilar quyidagi “Moychechak”usuli orqali turkiy tilning qaysi tillar oilasiga kirishi haqida ma’lumotga ega bo’lasiz.

O’zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi. Dunyoda 30ga yaqin turkiy til bor. Hurmatli o’quvchilar siz o’zbek tilining shevalari haqida ma’lumotga egasiz. Buni yana bir bor esga olamiz. Sheva bir millatga mansub bo’lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko’rinishidir.

Xalq shevalarining faqat og’zaki shakli mavjud.

O’zbek milliy tarkibida uchta lahja bor:

|                    |                    |
|--------------------|--------------------|
| 1.Qarluq lahjasi:  |                    |
|                    | <i>aka- oka</i>    |
| 2.Qipchoq lahjasi: |                    |
|                    | <i>yo’q-jo’q</i>   |
| 3.O’g’uz lahjasi:  |                    |
|                    | <i>keldi-galdi</i> |

Endi siz guruh bo’lib shevaga xos so’zlardan namunalar yozasiz.

**O’qituvchi:**Davlat tili masalasi hamma davlatlarda o’z mavqeyiga ega. Oramizda hali ham o’z tilining qadriga yetmagan, milliy g’urur nimaligini bilmaydigan insonlar bor.Gapirayotganda ruscha, inglizcha so’zlarni qo’shib aytishni go’yoki madaniyatli odamlarga xos xislat deb biladilar. Xalqimiz “Til-madaniyat ko’rki”deyishgan.

*So’zlardan qasr qurib, narvon tutgan ham o’zing  
Zargardek ishlov berib, zanjir qilgan har so’zing,  
Fikri qisqa, ma’noli Qahhorlarning tili-bu!  
Latif so’zlar ustasi G’ulomlarning tili-bu!  
Otashin nutq egasi Usmonlarning tili-bu!  
Ham Zulfiya, Halima, Mohlaroyim tili-bu!  
Ajdodlardan meros qolgan Tilimizni Sevaylik!*

*Yorug'likka chiqdi tilim, qadrin baland tutaylik.*

Qani, qaysi guruh XII-XIII asrda yozilgan mumtoz she'riyat namunalaridan aytadi. O'sha vaqtda tilimiz qanday bo'lgan?

**Namuna:**

**“Zukkolar”** guruhi

*Tili chin kerak bolsa ko'ngil koni*

*Bugunga asig' qilsa tug'sa kuni, ya'ni*

(Tili chin so'zlasa, ko'ngli to'g'ri bo'lsa

Xalqqa yaxshilik keltirsa, kuni tuqqani shu

Juda yaxshi bolalar bu so'zning mazmuniga e'tibor qilib, to'g'ri so'zlashga harakat qilaylik. Qani endi XIV-XV asrlarda yozilgan ruboiy va g'azallarga qaysi guruh namunalar keltiradi.

**Namuna:** “Topqirlar” guruhi

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,*

*Bilkim guhari sharfroq yo'q andin.*

“Oллоh barcha Yaratgan mavjudotlari ichida faqatgina insonga so'zlashish imkonini berdi. Tildan buyukroq va sharafliroq narsa yo'qdir”, -deydi hazrat Navoiy.

**O'qituvchi:** XXI asrda qanday o'zgarishlar bor. Qani “Bilimdonlar” guruhi

**Namuna:**

*Ona tilim bag'ri keng tilim,*

*Ajdodlardan qolgan merosim.*

*Kelajakka umidim, so'zim*

*Baralla kuylayman yetsa ovozim.*

O'zbek tili lug'at boyligi olinma so'zlar hisobiga hamda yangi so'zlarning paydo bo'lish hisobiga boyib bormoqda.

Shundan so'ng o'quvchilar javoblari baholanadi.

## **VII.Darsni xulosalash.**

O'qituvchi: Asrlar osha opichlab, ne-ne dovullardan omon asrab kelayotgan tilimizni e'zozlaylik, qadriga yetaylik!

Darsda faol qatnashgan guruh aniqlanib, e'lon qilinadi.

**Uyga vazifa:**“Ozbegim deb keng jahonga ,Ne uchun madh etmayin!” mavzusida matn tuzish.

5- sinf

**Mavzu: Unli tovushlar**

| Mavzu                      | Unli tovushlar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|----------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                            | <p><b>Maqsad:</b> tilning ijtimoiy hodisa ekanligini o'quvchilarga tushintirish;</p> <p>-o'quvchilar so'z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.</p> <p>-o'quvchilarni insonparvar ruhida tarbiyalash, muomila madaniyatiga o'rgatish;</p> <p>a) <b>Ta'limiy maqsad</b> –o'quvchilarga unli tovush tushunchasini singdirish;</p> <p>b) <b>Tarbiyaviy maqsad</b> –o'quvchilarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;</p> <p>d)<b>Rivojlantiruvchi maqsad</b> –o'quvchilarning so'z boyligini oshirish tafakkurini rivojlantirish;</p> |
| <b>Maqsad va vazifalar</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |

**Vazifalari:** -o'quvchilarga mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kehgaytirish;

Mavzuga doir berilgan savollarni o'quvchilar tomonidan guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimni baholash.

|                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|--------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>O'quv jarayoning mazmuni</b>                        | <b>Unli tovush haqida (to'siqqa uchramaydigan tovushlar)</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>O'quv jarayonini amalgam oshirish texnologiyasi</b> | <p><b>Metod:</b> suhbat, tushunchalar tahlilim, ta'limiy o'yin ("uzum pishdi, bog'ga tush", "kvadrat" o'yini, "maqollardan unli harfni toping" "lug'at" so'zni toppish va gap tuzish), suhbat</p> <p><b>Uzul:</b> unduktiv (mashq va topshiriqlar asosida)</p> <p><b>Vosita:</b> darslik, jadvallar</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| <b>Kutiladigan natijalar</b>                           | <p><b>O'qituvchi:</b> Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchi faolligini oshiradi. O'quvchilarga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchilar baholanadi. O'quvchilar tomonidan darsni mustaqil o'rganish va uni hotirada saqlash, boshqalarga etkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi.</p> <p><b>O'quvchi:</b> yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlarni o'rganadi, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotgaega bo'ladi.</p> <p><b>O'qituvchi:</b> pedagogic texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> |
| <b>Kelgusi rejalar</b>                                 | <b>O'qituvchi:</b> Mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar izlaydi, ularni o'rganadi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>Dars jihozi</b>                                     | Unli tovushlar va ular ishtirok etgan so'zlar aks etgan plakat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |

### Darsni vaqtini taqsimlash

|                                                 |           |
|-------------------------------------------------|-----------|
| 1 Tashkiliy qism                                | 2-daqiqa  |
| 2 O'tilgan mavzuni takrorlash                   | 5-daqiqa  |
| 3 "Uzum pishdi, bog'ga tushdi"                  | 3-daqiqa  |
| 4 "Kvadrat" metodi                              | 5-daqiqa  |
| 5 O'qituvchining qisqacha tushuntirishi         | 5-daqiqa  |
| 6 Guruhlar bilan ishlash O'quvchilarni baholash | 10-daqiqa |
| 7 Darsni yakunlash                              | 8-daqiqa  |
| 8 Uyga vazifa                                   | 2-daqiqa  |
|                                                 | 5-daqiqa  |

### DARSNING REJASI:

1. Tovushlarni talaffuz qilishda to'siqning bor yoki yo'qligi.
2. Unli tovush haqida (to'siqqa uchramaydigan tovushlar).
3. Unli tovushlar miqdori.

### **YANGI MAVZU BAYONI:**

Kibri havoli bo'lsang,  
Pushaymonlari bordir.  
Kamtarin bola bo'lsang  
Izzat hurmating bordir.

Nutq tovushlari ikki xil bo'ladi,  
Unli tovushlar. Undosh tovushlar  
Unli tovushlar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi.  
Unlilar bo'g'in hosil qiladi:  
**a-ka, o-i-la, mu-do-fa-a**

Unli tovushlar faqat un (ovoz) dan hosil bo'ladi. Ular jami 6 ta bo'lib, bular a, o, u, o', i, e harf bilan ifodalanadi.

A, a harfi savob, zamon singari so'zlarda o kabi aytilsa ham a yoziladi.

**Masalan:** bahor, baho, Jahondir.

O, o harfi tonna, noyabr kabi so'zlarda o' kabi aytilsa ham o yoziladi.

**Masalan:** bodring, qovoq, konsert, kokil.

**O tovushi** ko'l, o's, cho'l, jo'ra, mo'tabar kabi sozlarda torroq, bo'ri, qo'zi, xo'roz, ro'mol kabi so'zlarda esa kengroq eshitiladi, ammo har vaqt bir xil shaklda yoziladi.

**E** harfi **kecha, ekran, ne'mat** kabi so'zlarda to'liq talaffuz qilinadi.

Telefon, teatr, okean, material kabi so'zlarda i ga monand aytiladi, lekin **e** yoziladi.

Ikki bo'g'nli so'larning birinchi bo'g'inida lablashdan **u** unlisi ta'sirida ikkinchi bo'g'indagi **i** unlisi u holida talaffuz qilinsa ham, yozuvda **i** yoziladi. Shunday yozilishi bilan ikkinchi bo'g'inida **u** yoziladigan otlardan farqlanadi.

**Masalan:** Urish-urish, yurush-yurish, qurut-qurit.

**I** i unlisi **bir, sira** so'zlarida qisqa, **ilm, muhim, doir** so'zlarida cho'ziq talaffuz qilinadi.

**U** u unlisi **kuch, tutun** kabi so'zlarda qisqa, **uyg'ur, yozuv** so'zlarida cho'ziq va torroq talaffuz

qilinadi.

**Yangi mavzuni mustahkamlash.** Maqollardagi unli harflarni toping. "Qo`rqoq bo`lmang" maqollaridagi unlilarni toping.

**Qo`rqoq**ning ko`zi katta, ahmoqning so`zi katta.

Qo`qoq oldin must ko`tarar.

Arslonning bo`kirgani-

sichqonning o`lgani.

Qo`rqoqning o`z quroli o`ziga yov.

Botir bir marta o`lar,

Qo`rqoq yuz marta

### Guruhlarga savollar:

So`zlarni to`g`irlang, unlilarni toping va gaplar tuzing.

#### 1-guruh:

Ota,ono, farsand,axil.

#### 2-guruh:

Soglom, meribon, o`gil, koftok.

#### 3-guruh:

Mexmon, yozmoq, islamoq, mehribon.

#### Namuna: Ona.

Ona-mo`tabar zot.

### Uch guruhga savol:

**O`, I, E unlilari ishtirokida so`zlar ayting.**

| 1-guruh  | 2-guruh | 3-guruh   |
|----------|---------|-----------|
| O`yin    | ish     | elak      |
| O`jar    | ishla   | etak      |
| O`rdak   | ishtaha | ertak     |
| O`tkir   | islom   | elektr    |
| O`tin    | itoat   | egov      |
| O`sha    | ibrat   | egar      |
| O`q      | istak   | ekalogiya |
| O`choq   | idrok   | ertalab   |
| O`rmon   | ichak   | egizak    |
| O`rta    | ilm     | eng       |
| O`quvchi | inson   | e`tabor   |

**Uyga vazifa:**

«Kamtarlik-ulug' fazilat» mavzusida hikoyacha yozing. Unli tovushlarning aytilishi va imlosida alohida diqqat qiling.

**Darsni yakunlash.**

**7-sinf 2- chorak****Mavzu: Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asari****Darsning maqsad:**

- yozuvchi va uning asari haqida ma'lumot berish, tahlilga o'rgatish;
- o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda o'zgalarning ruhiy kechinmalarini tushunish, darddoslik tuyg'ularini o'stirish;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'zgal kechinmalarini ilg'ashga o'rgatish.

**Darsning metodi:** Aqliy hujum, guruhlarda ishlash**Darsning borishi:**

1. O'tilgan mavzuni suhbat asosida so'rash va mustahkamlash.
2. Aqliy hujum.
3. Adib umrbayoni bilan tanishish.
4. Asar matnini o'qish, matn ustida ishlash.
5. Yangi mavzuni mustahkamlash. Guruhlarda ishlash.
6. Fikrlar himoyasi.
7. Uyga vazifa berish.

**O'tilgan mavzu** Mirtemir she'rlarining o'ziga xos jo'shqin, o'ynoqi jihatlari, ota yurt tabiatiga muhabbat, uning tengsiz go'zalligi tasviri savollar asosida so'ralib, suhbat o'tkaziladi, dars mustahkamlanadi.

**Yangi mavzu bayoni. Aqliy hujum:**

Ch. Aytmatov kim, uning ijodiga xos qaysi asarni bilasiz?

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi va to'ldirish uchun adib umrbayoni bilan tanishtiriladi.

O'rganilajak asarni mukammal o'zlashtirish uchun uni yozgan odamning shaxsini bilish katta ahamiyatga ega. Adibning otasi hukumat idoralarida mas'ul vazifalarda ishlaganiga qaramay, qatag'on qurboni bo'lgani, bo'lajak adibning 12-14 yoshlarida qishloq kengashida kotib bo'lib ishlagani, «odamlarni, hayotni g'oyat yaxshi bilgan, chin yurakdan yaxshi ko'rgan», «kishilar uchun juda aziz, juda zarur bo'lgan tuyg'ularni, holatlarni, mavzularni qalamga olgan», bu ulug' insonning bolalarni sevishi, ularni tushunishi, ardoqlashi va ayashga intilishiga e'tibor qaratilsa, o'quvchilarda adib shaxsiga mehr uyg'onadi. Dong'i dunyoga taralgan ulug' kishilarning bolaligi qaysidir jihatlari o'z hayotlariga o'xshab ketishini sezish o'quvchilarni o'z ertasiga ishonch bilan qarashga o'rgatadi.

**Asar matnini o'qish:**

Kimnidir yoki nimanidir yaxshi ko'ra olish- insonga berilgan bebaho ne'matdir. O'quvchining asar qahramoni bo'lmish «xayolchan va pokiza uka»sini yaxshi ko'rib qolishida matnni ifodali o'qishning ahamiyati beqiyos.

«Oq kema»ni o'qishni boshlashdan oldin o'qituvchining asar matnini soatlarga taqsimlab olishi, qaysi qismini sinfda, qay bo'laklarini uyda o'qish lozimligini rejalashtirib olishi unga vaqtni tejash imkonini beradi. Bu ishni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Birinchi darsda, adib haqidagi qisqacha suhbatdan so'ng ikki soat mobaynida asar o'qiladi va «Shunday qilib oq

kema haqidagi ertak ham tugadi» tarzidagi qism bilan tugatiladi. Uchinchi soatni «Shoxdor ona bug`u esa, ketish oldidan bundan buyon bu yerlarga aslo qadam bosmayman, debdi...» jumlasini bilan tugatiladi. Matnning qolgan qismini o`qish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

Qissani o`qishda bolalar diqqati uning boshlanishidagi ikki ertak haqidagi jummalarga qaratiladi. Ertaklarga sarlavha topish topshirig`i beriladi.

Matn o`qib bo`lingach, tahlil jarayonida o`quvchilar tasavvurida qissadagi bola yashayotgan sharoitni jonlantirishga erishish kerak. Shunda bolalarda asarda tasvirlangan voqeani ko`z oldilariga keltirish, qahramon tuyg`ularini his etish va tasavvuridagi holatlarni so`z bilan ifodalash malakasi shakllanadi.

**Guruhlarda ishlash.** Har bir guruhga asar matni yuzasidan quyidagicha topshiriqlar beriladi:

**1-guruh:** Qissa qahramoni bolaning portfellik bo`lishdan shunchalik quvonishiga sabab nima? Boladagi o`ychanlik, hayratlana olish, hamma narsani, hatto jonsiz jismlarni ham his etish sizda qanday munosabat uyg`otdi? Siz ham biror narsadan shu darajada xursand bo`la olasizmi? Nima uchun?

**2-guruh:** Bolaning toshlar bilan do`stlashib, suhbatlashib yurishi boisi nimada, chaqirtikanakni nima sababdan dushman deb biladi? Bola nima sababdan pechak gullarini yaxshi ko`radi? Shiroljinlarning bola ko`ngli, tabiati bilan qanday bog`liqligi bor, bu butalar bag`rida pinhona yig`lagisi kelishining sabablari haqida mulohaza yuriting

**3-guruh:** Bolaning bobosi- Mo`min cholning ochiqko`ngil, hatto sal- pal biladagan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hoziru nozirliigi, hammaga sadoqatli va xushmuomalaligi kabi fazilatlarining ba`zan illatga aylanishi, boboning zarariga xizmat qilishi sabablari haqida gapiring.

**4-guruh:** Mo`min bug`u avlodidan bo`lib, bu bilan g`oyat faxrlanar va o`z qabiladoshlaridan birontasining ma`rakasidan qolmasdi. Buning sababi nimada? Nima uchun adib Mo`min cholni kamdan-kam uchraydigan baxtli odam deb baholaydi?

#### **Guruhlar fikrlari himoyasi:**

Guruhlarda fikrlar himoya qilinganda o`quvchilar bahs-munozara asnosida bolaning tabiat qo`ynidagi mavjudotlarga munosabati, ularni sevishi, qay darajadadir o`zini ularga taqdirdosh deb bilishi o`quvchilarga ham yuqadi. Mo`min cholga atrofdagilarning munosabati to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligini baholashga urinish odamlarga, hayotiy voqealarga o`quvchida munosabat paydo qiladi, nuqtai nazarni shakllantiradi. Odamlarga yaxshilik qilib evaziga hech narsa talab etmaydigan, aksincha, ayrimlarning masharalashiga nishon bo`ladigan, lekin bundan zarra og`rinmaydigan bobo tabiati haqida o`ylash, o`quvchilarni hayotga jiddiyroq qarashga, odamlarning xatti-harakatlariga sinchiklabroq nazar solishga o`rgatadi.

Guruhlar ishi baholanadi. Bunda o`quvchilarning mustaqil fikrlashi va xulosa chiqara olishi hisobga olinadi.

**Uyga vazifa:** asarning davomini o`qish

**2-soatda** guruhlarda ishlash davom ettiriladi. Asarning davomi ifodali o`qiladi va o`quvchilarga quyidagi savollar bitilgan kartochkalar tarqatiladi.

#### **1-topshiriq**

Mo`min cholni kengashga chaqirishmaganda qattiq ranjib, bu hodisani unutilmasligi sababi nimada deb o`ylaysiz? O`z qadri uchun emas, azaliy urf-odatlarining poymol etilayotganligi uchun xafa bo`la olish tuyg`usini izohlay olasizmi? Mo`min cholga xos sifatlarni yozib chiqing.

#### **2- topshiriq**

O`rozqul va Bo`key xola timsollari haqida fikr bildiring. Ularning dardi nimada? Ular tabiatiga xos yaxshi va yomon sifatlarni ayting.

### 3- topshiriq

Seydahmad bilan bola o'rtasidagi munosabat haqida o'z fikringizni bildiring. Yozuvchi mahoratiga munosabat bildirib olasizmi?

### 4- topshiriq

Bolaning portfel va durbin bilan odam bilan gaplashgandek gaplashishiga qanday qaraysiz? Nega shunday? Bu yaxshimi- yomonmi? Bola uchun hammasidan zavqli bo'lgan holat qaysi ekanligini ayting.

### 5-topshiriq

Bolaning oq kemaga shunchalik bog'lanib qolganligi sababini tushuntiring. Oq kemani ko'rganda nima uchun bolaning yuragi gupurib ketadi?

### 6- topshiriq

Bolada baliqqa aylanish va oq kemaga suzib borish istagi paydo bo'lishining asl sabablari nimada ekanligini matndan qidirib toping va izohlashga harakat qiling.

#### **Fikrlar himoyasi:**

Guruhlar fikrlari tinglanadi. Har bir guruh o'z fikrini himoya qiladi. Javoblarning ayrimlari o'qituvchi kutganidek chiqmasligi mumkin. Lekin matn bilan ishlash, asar ruhiga kirish, qahramonlar holatini tuyish, o'zidan o'tkazish o'quvchiga ko'p narsa beradi, unga «dard» yuqtiradi. O'quvchilarni shunday holatga sola olish o'qituvchining yutug'idir.

**Uyga vazifa:** Shoxdor ona bug'u haqidagi ertakni o'qish.

### 3- soat.

**Mavzu:** Shoxdor ona bug'u haqida ertakni o'qish va tahlil qilish.

#### **Darsning borishi:**

1. O'qituvchining kirish so'zi.
2. Asar matni ustida ishlash.
3. Guruhlarda ishlash. Muammoli topshiriqlar berish.
4. Fikrlar himoyasi.
5. O'quvchilarni rag'batlantirish va baholash.
6. Uyga vazifa topshirish.

O'qituvchining kirish so'zi: Asar garchi ertak tarzida berilgan bo'lsa-da, uning zamirida haqiqat bor. Enasoy daryosi bo'ylarida haqiqatan ham turkiy xalqlar istiqomat qilganlar. Ular chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Sibirdagi ko'pgina joy nomlarining turkcha ekanligi ham mazkur holatni tasdiqlaydi.

Dastlab asarda berilgan Enasoy haqidagi qadimiy turkiy qo'shiq tahlil etiladi. Mazkur qo'shiqdan xalqning o'z yeri va o'z vatanini qanchalar chuqur mehr bilan sevganini his etish mumkin. Asar tahlili bo'yicha quyidagi topshiriqlar guruhlarga tarqatiladi:

### 1-topshiriq

Daryoning Enasoy deb nomlanishida qanday ma'no bor deb o'ylaysiz? Matnga tayanib xulosangizni ayting.

### 2-topshiriq

O'rmonda paydo bo'lgan qushning qichqirig'i nimadan darak edi?  
"Odamning odamga ichi achimasdi" jumlasini qanday tushundingiz?

### 3-topshiriq

Sho`xlik va o`zboshimchaliklari tufayli o`rmonga ketib, shu sabab tirik qolgan bolalarning ruhiy holatlari haqida fikr bildiring

### 4-topshiriq

Qabilalar o`rtasida dushmanlikni keltirib chiqargan sabablar qaysi deb o`ylaysiz?

### 5-topshiriq

Bolalar kelganda g`alabalarini nishonlayotgan qabiladagilar nega muncha qo`rqib ketganliklariga sabab nimada deb o`ylaysiz?

### 6-topshiriq

Bobosining Shoxdor ona bug`u haqidagi ertagi bolaga qanday ta`sir qildi? Shu o`rinlarni qayta o`qing va buning sabablarini tushuntirishga harakat qiling.

### 7-topshiriq

Insonlar bilan bug`uning oqibat, ezgulik, sadoqat borasidagi hamda odamzod bilan hayvonning tili, dili va faoliyatidagi jihatlarni solishtirib munosabat bildiring.

### 8-topshiriq

Ona bug`uning kimsasiz qolgan bolalarga mehribonligi, yordam berganligi, odamlarga, ezgulikka hamisha sodiqligining sabablari nimada deb o`ylaysiz?

**Fikrlar himoyasi.** O`quvchilarning fikrlari umumlashtiriladi va to`ldiriladi. O`qituvchi yuqoridagi savollar yordamida o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish bilan birga ularni tez-tez matnga murojaat etishga yo`naltiradi. Bundan kutiladigan maqsad o`quvchilar ko`nglida odamzot tomonidan amalga oshirilgan vahshiyliklarga nafrat uyg`otilishi kerak. Inson –qancha olijanob va yaratuvchan bo`lsa, shunchalik darajada vahshiylik va buzg`unchiliklarga ham qodir. Buni atrofimizdagi odamlarda ham har xil ko`rinishda uchratish mumkinligi o`quvchilarga singdirilishi kerak. O`z hislatlarini qaysidir tomonga yo`naltirish, o`zida qanday ma`naviy sifatlarni tarkib toptirish insonning o`ziga bog`liq. U shunday dahshatlarni sodir etmasligi, inson nomiga chinakam munosib bo`lishi uchun uning ko`nglini chiroyli qilishga erishishi kerak. Ko`ngli chiroyli bo`lgan, go`zallikdan quvonib, bahra oladigan etib tarbiyalansa, u o`zgalarni ayaydigan bo`ladi. Razilliklardan hazar qiladi, yomonliklarga jur`at etolmaydi.

O`rganilganlar yuzasidan savol-javob o`tkaziladi, faol o`quvchilar rag`batlantiriladi.

### 4-soat

#### Darsning rejasi:

1. Matnning qolgan qismini o`qish.
2. Boshqa bo`limlar yuzasidan umumiy savol va topshiriqlar berish.
3. Bahs-munozara, tahlil.
4. Test topshiriqlari.
5. Darsni mustahkamlash.
6. Uyga vazifa topshirish.

Matnning davomi o`qib o`rganilgach, o`quvchilarga quyidagicha savollar beriladi.

**1-topshiriq.** Ona bug`uda inson zotini yaxshi ko`rish, uning avlodlarini saqlab qolishdan ko`ra, undan nafratlanishga va urug`ini quritib yuborishga asos ko`proq ekanini matndan topib o`qing va buning sababini tushuntirishga harakat qiling.

**2-topshiriq.** Baymoq kampir ona bug`uga: «Odam bolalari seni yaxshilingga yomonlik bilan javob qaytarishsa, o`zingdan ko`r» deganida nimani nazarda tutgan edi?

**3-topshiriq.** Ona bug`uning bolalarga: «Sizlar keltirgan tilni avlodlar unitmaydi. Ularga o`z tillarida so`zlash va kuylash yoqimli bo`ladi. Insonlar qanday yashashi kerak bo`lsa shunday yashanglar» degan fikrni sharhlang.

**4-topshiriq.** Bug`u boy avlodlarida shoxdor Ona bug`uga bo`lgan e`tiqod qanday edi, bu e`tiqodga putur yetishining sababi nimada edi?

**5-topshiriq.** «Butun umr bo`yi bug`u nima ekanligini ko`rmagan yangi insonlar tug`ildi» jumlasining o`zingizga qay darajada dahli bor deb o`ylaysiz?

**6-topshiriq.** Bolaning shoxdor Ona bug`u kallasini ko`rgandagi holati tasvirlangan o`rinlarni qayta o`qing va bu haqda fikr bildiring.

**7-topshiriq.** O`rozqulning o`ldirilgan bug`u shoxini olishdagi xatti-harakati sizda qanday munosabat uyg`otdi?

Yuqoridagi savollarga javob berish asnosida o`quvchilar o`z fikrlarini mustaqil bayon etadilar. Asar qahramoni ruhiyati, kechinmalari va holati qahramon misolida o`quvchilarni o`zga insonni his etishga o`rgatib boradi. O`quvchilar bir-birlarini fikrlarini e`tibor bilan eshitishlari lozim. Shunda ular boshqalarni fikrini takrorlamaydigan, o`z qarashlariga ega, mustaqil mulohaza yuritishga qodir, o`zicha qat`iy qaror qabul qila oladigan kishilar sifatida shakllanadilar.

**O`quvchilarni toliqtirmaslik uchun ularga qiziqarli bo`lgan o`yin tashkil etish mumkin.** Masalan, «Oltin toj» o`yini, u quyidagicha tashkil etiladi.

“Oltin toj” o`yini katta mavzu yoki bir bo`lim tugagandan so`ng mustahkamlash, umumlashtirish darslarini tashkil etishda foydalanish mumkin. Bunga o`qituvchi avvaldan tayyorgarlik ko`radi. “Tojga” va unga o`rnatiladigan asar yoki qahramon nomlari yetarlicha tayyorlanadi. Bu “Asar nomini toping”, “Qahramon nomini ayting” va h.k. tarzda bo`lishi mumkin.

Bir o`quvchi doskaga chiqarilib, unga ko`rsatmasdan biror asar yoki qahramon nomi yozilgan **toj** kiygiziladi. Unga topshiriq qisqacha tushuntiriladi. Sinfdagi o`quvchilar uni ko`rib turadilar. Toj kiygan o`quvchi sinfdagi o`tirgan o`quvchilarga ular “ha” yoki “yo`q” deb javob berishlari mumkin bo`lgan savollarnigina berishi mumkin. Masalan, tojga biror qahramon nomi yozilgan bo`lsa, shunday savollar berilishi mumkin. Asarmi?, Qahramonmi?, “Susambil”danmi, ... danmi?

Shunda o`quvchilar faqat “ha” yoki “yo`q” javobini beradilar.

Sinfda o`tirgan o`quvchilar ortiqcha ma`lumot va tushuntirishlar bermasliklari kerak. Bir darsda bir qancha o`quvchilar navbat bilan yoki bir vaqtda “toj o`yini”da ishtirok etishlari mumkin. Eng kam savol berib javobni aniqlagan o`quvchi rag`batlantiriladi.

Test topshiriqlari bilan ishlash

**1. “Oq kema” asarida “tuya”, “bo`ri”, “egar”, “tank”larga o`xshatilgan narsa nima edi?**

A. Rasm.

B. Hayvon.

S. Mashina.

D. Harsang.

**2. Quyidagi so`zlarni “Oq kema” asarining qaysi qahramoni aytgan?**

“Ming yillar tinch-totuv yashaganlar. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o`z ona tillarida so`zlash va kuylash yoqimli bo`ladi.”

A. Mo`min.

B. Botir Qulchi.

S. Ona bug`u.

D. Bo`key.

### 3. Bug`uboy avlodlarida takabburlik qachondan boshlandi?

- A. Bug`ular Issiqko`lni tark etishgach.
- B. Bu`guboy avlodlarining oshib-toshib ketgan mashhur boyi o`lgach
- S. Issiqko`lni dushmanlar bosib olgach
- D. O`rozqul tomonidan bu`gu o`ldirilgach

### 4. Quyidagi fikrni "Oq kema" asarining qaysi qahramoni aytgan?

"..... qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boylik takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug`diradi, .... pul hukmron bo`lgan joyda ezgu so`zga o`rin yo`q...."

- A.Boymoq kampir.
- B.Mo`min chol.
- S.Shoxdor ona bug`u.
- D. Botir Qulchi.

O`quvchilar asardagi har bir qahramonga xos insoniy sifatlarning qandayligini matnga tayangan holda quyidagi jadvalga mustaqil yozadilar.

| Mo`min chol                  |                 | Bola             |                 | O`rozqul         |                 | Bo`key           |                 | Seydahmad        |                 |
|------------------------------|-----------------|------------------|-----------------|------------------|-----------------|------------------|-----------------|------------------|-----------------|
| Yaxshi sifatleri             | Yomon sifatleri | Yaxshi sifatleri | Yomon sifatleri | Yaxshi sifatleri | Yomon sifatleri | Yaxshi sifatleri | Yomon sifatleri | Yaxshi sifatleri | Yomon sifatleri |
| Pok e`tiq-odli, sami-miy ... |                 |                  |                 |                  |                 |                  |                 |                  |                 |

Yuqoridagi topshiriqning davomini hamda «Qissadagi bola timsoliga tavsif» mavzusida taassurot yozishni **uyga vazifa** etib topshirish mumkin.

### Mavzu: Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asari

#### Darsning maqsadlari:

**Ta`limiy maqsadi:** Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash, uning "Oq kema" asari mazmuni bilan tanishtirish, ularga asardagi obrazlar olami haqida, yaxshilik, olijanoblik, mehr-oqibatkabi fazlatlarni tushuntirish;

**Tarbiyaviy maqsadi:** O`quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda o`zgalarning ruhiy kechinmalarini tushunish, darddoshlik tuyg`ularini o`stirish;

**Rivojlantiruvchi maqsadi:** O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish, o`zgalar kechinmalarini ilg`ashga o`rgatish, og`zaki nutq malakalarini rivojlantirish, mantaqiy fikrlash doirasini kengaytirish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi

**Darsning metodi:** Aqliy hujum, guruhlarda ishlash, klaster.

**Dars jihozi:** 7-sinf adabiyot darsligi, portret, Ch. Aytmatov asarlari, slaydlar, oq qog`oz, markerlar, plakatlar, rag`bat kartochkalari, test savollari

**Fanlararo aloqa:** tarix, botanika, biologiya, san`at, geografiya

| №  | Darsning borishi                      | Vaqt      |
|----|---------------------------------------|-----------|
| 1. | Tashkiliy qism                        | 5 daqiga  |
| 2. | O`tilgan mavzuni takrorlash           | 12 daqiga |
| 3. | O`tilgan mavzuni yakunlash            | 3 daqiga  |
| 4. | Yangi darsning bayoni                 | 15 daqiga |
| 5. | O`tilgan mavzuni mustahkamlash        | 3 daqiga  |
| 6. | Guruhlar ishini yakunlash va baholash | 5 daqiga  |

|    |                    |           |
|----|--------------------|-----------|
| 7. | Uyga vazifa berish | 2 daqiqa  |
|    | Jami:              | 45 daqiqa |

## DARSNING BORISHI

### I. TASHKILIY QISM:

- a) Salomlashish;
- b) navbatchi va davomatni aniqlash;
- d) mustaqilligimizning muhim sanalari va she'riy daqiqalar;

#### O'tilgan mavzuni so'rash

Mirtemir she'rlarining o'ziga xos jo'shqin, o'ynoqi jihatlari, ota yurt tabiatiga muhabbat, uning tengsiz go'zalligi tasviri savollar asosida so'ralib, suhbat o'tkaziladi, dars mustahkamlanadi.

#### Yangi mavzu bayoni.

##### Aqliy hujum:

Ch. Aytmatov kim, uning ijodiga xos qaysi asarni bilasiz?

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi va to'ldirish uchun adib umrbayoni bilan tanishtiriladi.

O'rganilajak asarni mukammal o'zlashtirish uchun uni yozgan odamning shaxsini bilish katta ahamiyatga ega. Adibning otasi hukumat idoralarida mas'ul vazifalarda ishlaganiga qaramay, qatag'on qurboni bo'lgani, bo'lajak adibning 12-14 yoshlarida qishloq kengashida kotib bo'lib ishlagani, «odamlarni, hayotni g'oyat yaxshi bilgan, chin yurakdan yaxshi ko'rgan», «kishilar uchun juda aziz, juda zarur bo'lgan tuyg'ularni, holatlarni, mavzularni qalamga olgan», bu ulug' insonning bolalarni sevishi, ularni tushunishi, ardoqlashi va ayashga intilishiga e'tibor qaratilsa, o'quvchilarda adib shaxsiga mehr uyg'onadi. Dong'i dunyoga taralgan ulug' kishilarning bolaligi qaysidir jihatlari o'z hayotlariga o'xshab ketishini sezish o'quvchilarni o'z ertasiga ishonch bilan qarashga o'rgatadi.

##### Asar matnini o'qish:

Kimnidir yoki nimanidir yaxshi ko'ra olish- insonga berilgan bebaho ne'matdir. O'quvchining asar qahramoni bo'lmish «xayolchan va pokiza uka»sini yaxshi ko'rib qolishida matnni ifodali o'qishning ahamiyati beqiyos.

«Oq kema»ni o'qishni boshlashdan oldin o'qituvchining asar matnini soatlarga taqsimlab olishi, qaysi qismini sinfda, qay bo'laklarini uyda o'qish lozimligini rejalashtirib olishi unga vaqtni tejash imkonini beradi. Bu ishni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Birinchi darsda, adib haqidagi qisqacha suhbatdan so'ng ikki soat mobaynida asar o'qiladi va «Shunday qilib oq kema haqidagi ertak ham tugadi» tarzidagi qism bilan tugatiladi. Uchinchi soatni «Shoxdor ona bug'u esa, ketish oldidan bundan buyon bu yerlarga aslo qadam bosmayman, debdi...» jumlasini bilan tugatiladi. Matnning qolgan qismini o'qish uyga vazifa sifatida topshiriladi.

Qissani o'qishda bolalar diqqati uning boshlanishidagi ikki ertak haqidagi jummalarga qaratiladi. Ertaklarga sarlavha topish topshirig'i beriladi.

Matn o'qib bo'lingach, tahlil jarayonida o'quvchilar tasavvurida qissadagi bola yashayotgan sharoitni jonlantirishga erishish kerak. Shunda bolalarda asarda tasvirlangan voqeani ko'z oldilariga keltirish, qahramon tuyg'ularini his etish va tasavvuridagi holatlarni so'z bilan ifodalash malakasi shakllanadi.

**Guruhlarda ishlash.** Har bir guruhga asar matni yuzasidan quyidagicha topshiriqlar beriladi:

**1-guruh:** Qissa qahramoni bolaning portfellik bo'lishdan shunchalik quvonishiga sabab nima? Boladagi o'ychanlik, hayratlana olish, hamma narsani, hatto jonsiz jismlarni ham his etish sizda qanday munosabat uyg'otdi? Siz ham biror narsadan shu darajada xursand bo'la olasizmi? Nima uchun?

**2-guruh:** Bolaning toshlar bilan do'stlashib, suhbatlashib yurishi boisi nimada, chaqirtikanakni nima sababdan dushman deb biladi? Bola nima sababdan pechak gullarini yaxshi ko'radi? Shiroljinlarning bola ko'ngli, tabiati bilan qanday bog'liqligi bor, bu butalar bag'rida pinhona yig'lagisi kelishining sabablari haqida mulohaza yuriting

**3-guruh:** Bolaning bobosi- Mo'min cholning ochiqko'ngil, hatto sal- pal biladagan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hoziru nozirliqi, hammaga sadoqatli va xushmuomalaligi kabi fazilatlarining ba'zan illatga aylanishi, boboning zarariga xizmat qilishi sabablari haqida gapiring. **Guruhlar fikrlari himoyasi:**

Guruhlarda fikrlar himoya qilinganda o'quvchilar bahs-munozara asnosida bolaning tabiat qo'ynidagi mavjudotlarga munosabati, ularni sevishi, qay darajadadir o'zini ularga taqdirdosh deb bilishi o'quvchilarga ham yuqadi. Mo'min cholga atrofdagilarning munosabati to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini baholashga urinish odamlarga, hayotiy voqealarga o'quvchida munosabat paydo qiladi, nuqtai nazarni shakllantiradi. Odamlarga yaxshilik qilib evaziga hech narsa talab etmaydigan, aksincha, ayrimlarning masharalashiga nishon bo'ladigan, lekin bundan zarra og'rinmaydigan bobo tabiati haqida o'ylash, o'quvchilarni hayotga jiddiyroq qarashga, odamlarning xatti-harakatlariga sinchiklabroq nazar solishga o'rgatadi.

Guruhlar ishi baholanadi. Bunda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va xulosa chiqara olishi hisobga olinadi.

**2-soatda** guruhlarda ishlash davom ettiriladi. Asarning davomi ifodali o'qiladi va o'quvchilarga quyidagi savollar bitilgan kartochkalar tarqatiladi.

### **1-topshiriq**

Mo'min cholni kengashga chaqirishmaganda qattiq ranjib, bu hodisani unutilmasligi sababi nimada deb o'ylaysiz? O'z qadri uchun emas, azaliy urf-odatlarining poymol etilayotganligi uchun xafa bo'la olish tuyg'usini izohlay olasizmi? Mo'min cholga xos sifatlarini yozib chiqing.

**2- topshiriq** O'rozqul va Bo'key xola timsollari haqida fikr bildiring. Ularning dardi nimada? Ular tabiatiga xos yaxshi va yomon sifatlarini ayting.

### **3- topshiriq**

Seydahmad bilan bola o'rtasidagi munosabat haqida o'z fikringizni bildiring. Yozuvchi mahoratiga munosabat bildirib olasizmi?

### **4- topshiriq**

Bolaning portfel va durbin bilan odam bilan gaplashgandek gaplashishiga qanday qaraysiz? Nega shunday? Bu yaxshimi- yomonmi? Bola uchun hammasidan zavqli bo'lgan holat qaysi ekanligini ayting.

### **5-topshiriq**

Bolaning oq kemaga shunchalik bog'lanib qolganligi sababini tushuntiring. Oq kemani ko'rganda nima uchun bolaning yuragi gupurib ketadi?

### **6- topshiriq**

Bolada baliqqa aylanish va oq kemaga suzib borish istagi paydo bo'lishining asl sabablari nimada ekanligini matndan qidirib toping va izohlashga harakat qiling.

### **Fikrlar himoyasi:**

Guruhlar fikrlari tinglanadi. Har bir guruh o'z fikrini himoya qiladi. Javoblarning ayrimlari o'qituvchi kutganidek chiqmasligi mumkin. Lekin matn bilan ishlash, asar ruhiga kirish, qahramonlar holatini tuyish, o'zidan o'tkazish o'quvchiga ko'p narsa beradi, unga «dard» yuqtiradi. O'quvchilarni shunday holatga sola olish o'qituvchining yutug'idir.

O'qituvchining kirish so'zi: Asar garchi ertak tarzida berilgan bo'lsa-da, uning zamirida haqiqat bor. Enasoy daryosi bo'ylarida haqiqatan ham turkiy xalqlar istiqomat qilganlar. Ular chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Sibirdagi ko'pgina joy nomlarining turkcha ekanligi ham mazkur holatni tasdiqlaydi.

Dastlab asarda berilgan Enasoy haqidagi qadimiy turkiy qo'shiq tahlil etiladi. Mazkur qo'shiqdan xalqning o'z yeri va o'z vatanini qanchalar chuqur mehr bilan sevganini his etish mumkin. Asar tahlili bo'yicha quyidagi topshiriqlar guruhlariga tarqatiladi:

### **1-topshiriq**

Daryoning Enasoy deb nomlanishida qanday ma'no bor deb o'ylaysiz? Matnga tayanib xulosangizni ayting.

### **2-topshiriq**

O'rmonda paydo bo'lgan qushning qichqirig'i nimadan darak edi?

“Odamning odamga ichi achimasdi” jumlasini qanday tushundingiz?.

### 3-topshiriq

Shoʻxlik va oʻzboshimchaliklari tufayli oʻrmonga ketib, shu sabab tirik qolgan bolalarning ruhiy holatlari haqida fikr bildiring

### 4-topshiriq

Qabilalar oʻrtasida dushmanlikni keltirib chiqargan sabablar qaysi deb oʻylaysiz?

### 5-topshiriq

Bolalar kelganda gʻalabalarini nishonlayotgan qabiladagilar nega muncha qoʻrqib ketganliklariga sabab nimada deb oʻylaysiz?

### 6-topshiriq

Bobosining Shoxdor ona bugʻu haqidagi ertagi bolaga qanday taʼsir qildi? Shu oʻrinlarni qayta oʻqing va buning sabablarini tushuntirishga harakat qiling.

**Fikrlar himoyasi.** Oʻquvchilarning fikrlari umumlashtiriladi va toʻldiriladi. Oʻqituvchi yuqoridagi savollar yordamida oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga oʻrgatish bilan birga ularni tez-tez matnga murojaat etishga yoʻnaltiradi. Bundan kutiladigan maqsad oʻquvchilar koʻnglida odamzot tomonidan amalga oshirilgan vahshiyliklarga nafrat uygʻotilishi kerak. Inson –qancha olijanob va yaratuvchan boʻlsa, shunchalik darajada vahshiylik va buzgʻunchiliklarga ham qodir. Buni atrofimizdagi odamlarda ham har xil koʻrinishda uchratish mumkinligi oʻquvchilarga singdirilishi kerak. Oʻz hislatlarini qaysidir tomonga yoʻnaltirish, oʻzida qanday maʼnaviy sifatlarni tarkib toptirish insonning oʻziga bogʻliq. U shunday dahshatlarni sodir etmasligi, inson nomiga chinakam munosib boʻlishi uchun uning koʻnglini chiroyli qilishga erishishi kerak. Koʻngli chiroyli boʻlgan, goʻzallikdan quvonib, bahra oladigan etib tarbiyalansa, u oʻzgalarni ayaydigan boʻladi. Razilliklardan hazar qiladi, yomonliklarga jurʼat etolmaydi.

Oʻrganilganlar yuzasidan savol-javob oʻtkaziladi, faol oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

**Oʻquvchilarni toliqtirmaslik uchun ularga qiziqarli boʻlgan oʻyin tashkil etish mumkin.** Masalan, «**Oltin toj**» oʻyini, u quyidagicha tashkil etiladi.


“Toj oʻyini”dan katta mavzu yoki bir boʻlim tugagandan soʻng mustahkamlash, umumlashtirish darslarini tashkil etishda foydalanish mumkin. Bunga oʻqituvchi avvaldan tayyorgarlik koʻradi. “Tojga” va unga oʻrnatiladigan asar yoki qahramon nomlari yetarlicha tayyorlanadi. Bu “Asar nomini toping”, “Qahramon nomini ayting” va h.k. tarzda boʻlishi mumkin.

Bir oʻquvchi doskaga chiqarilib, unga koʻrsatmasdan biror asar yoki qahramon nomi yozilgan **toj** kiygiziladi. Unga topshiriq qisqacha tushuntiriladi. Sinfdagi oʻquvchilar uni koʻrib turadilar. Toj kiygan oʻquvchi sinfdagi oʻtirgan oʻquvchilarga ular “ha” yoki “yoʻq” deb javob berishlari mumkin boʻlgan savollarnigina berishi mumkin. Masalan, tojga biror qahramon nomi yozilgan boʻlsa, shunday savollar berilishi mumkin. Asarmi?, Qahramonmi?, “Susambil”danmi, ... danmi?


Shunda oʻquvchilar faqat “ha” yoki “yoʻq” javobini beradilar.

Sinfdagi oʻtirgan oʻquvchilar ortiqcha maʼlumot va tushuntirishlar bermasliklari kerak. Bir darsda bir qancha oʻquvchilar navbat bilan yoki bir vaqtda “toj oʻyini”da ishtirok etishlari mumkin. Eng kam savol berib javobni aniqlagan oʻquvchi ragʻbatlantiriladi.

Klaster usulidan foydalaniladi



adi



Test topshiriqlari bilan ishlash

1. “Oq kema” asarida “tuya”, “bo’ri”, “egar”, “tank”larga o’xshatilgan narsa nima edi?

- A.Rasm.
- B. Hayvon.
- S. Mashina.
- D. Harsang.

2. Quyidagi so’zlarni “Oq kema” asarining qaysi qahramoni aytgan?

“Ming yillar tinch-totuv yashaganlar. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o’z ona tillarida so’zlash va kuylash yoqimli bo’ladi.”

- A.Mo`min.
- B. Botir Qulchi.
- S. Ona bug`u.
- D. Bo`key.

3. Bug`uboy avlodlarida takabburlik qachondan boshlandi?

- A. Bug`ular Issiqko`lni tark etishgach.
- B. Bu`guboy avlodlarining oshib-toshib ketgan mashhur boyi o`lgach
- S. Issiqko`lni dushmanlar bosib olgach
- D. O`rozqul tomonidan bu`gu o`ldirilgach

4. Quyidagi fikrni “Oq kema” asarining qaysi qahramoni aytgan?

“..... qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boylik takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug`diradi, .... pul hukmron bo`lgan joyda ezgu so`zga o`rin yo`q....”

- A.Boymoq kampir.
- B.Mo`min chol.
- S.Shoxdor ona bug`u.
- D. Botir Qulchi.

O`quvchilar asardagi har bir qahramonga xos insoniy sifatlarning qandayligini matnga tayangan holda quyidagi jadvalga mustaqil yozadilar.

| Mo`min chol     |                 | Bola             |                 | O`rozqul         |                 | Bo`key           |                 | Seydahmad        |                 |
|-----------------|-----------------|------------------|-----------------|------------------|-----------------|------------------|-----------------|------------------|-----------------|
| Yaxshi sifatlar | Yomon sifatleri | Yaxshi sifatleri | Yomon sifatleri | Yaxshi sifatleri | Yomon sifatleri | Yaxshi sifatleri | Yomon sifatleri | Yaxshi sifatleri | Yomon sifatleri |

|                                      |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|--------------------------------------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| Pok e'tiq-<br>odli, sami-<br>miy ... |  |  |  |  |  |  |  |  |  |
|--------------------------------------|--|--|--|--|--|--|--|--|--|

Yuqoridagi topshiriqning davomini hamda «Qissadagi bola timsoliga tavsif» mavzusida taassurot yozishni **uyga vazifa** etib topshirish mumkin.

### Xulosa

Unib – o'sib kelayotgan yangi avlod har bir jamiyat va xalqning tayanchidir. Mamlakatimiz ravnaqi ko'p jihatidan yoshlarning intellektual salohiyati, intilishlari va sa'y – harakatlariga bog'liq. Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizning ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-u saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash biz pedagog, ustozlar oldidagi ulkan vazifadir.

Agar biz o'z vaqtida uzoqni ko'zlab ertaga hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizning chuqur bilim va kasb – hunar egallashi uchun zarur zamin yaratmasak, ularni zamon talab qiladigan mutaxassis kadrlar etib tarbiyalashimiz kerakligini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Bu esa, albatta, ta'lim – tarbiya sohasiga zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot o'zgarishlarini tatbiq qilishini talab qilmoqda. Buning uchun esa biz ustoz-murabbiylarni har bir darsimizda, saboqlarimizda Davlat Ta'lim Standartlari asosida yangi pedagogik taxnologiyadan foydalanib qiziqarli, zamon talablari asosida sinfdagi barcha o'quvchilarni jalb etgan holda tashkil qilmog'imiz kerak.

Mavzu: Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari

|                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|--------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Mavzu                                            | Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| Maqsad, Vazifalar                                | O'quvchilarda insoniy fazilatlarini shakllantiriladi. Ilm olishning hayotdagi ahamiyati tushuntiriladi.<br>Vazifalar: O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otiladi, ularda mavzu asosida bilim, konikma va malakalar hosil qilinadi. Mavzuga oid tarqatilgan materiallar yakka va guruh holatida o'zlashtiriladi. Suhbat va munozara orqali tarqatma materiallardagi ma'lumotlar qay darajada o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi, o'quvchilar bilimi baholanadi. |
| O'quv jarayonining mazmuni                       | O'quvchilarga bog'lovchilar va ularning vazifasiga ko'ra turlari haqida teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarning farqini ajrata bilish, ularda yaratuvchanlik fazilatini shakllantiriladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| O'quv jarayonining amalga oshirish texnologiyasi | Uslub: Og'zaki bayon qilish, "Himoya" texnologiyasi<br>Shakl: Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash<br>Vosita: AKT, matn, test topshiriqlari<br>Usul: Tayyor yozma materiallar<br>Nazorat: Og'zaki nazorat, savol javoblar, muhokama, o'z-o'zini nazorat qilish.<br>Baholash: Rag'batlantirish, "5" balli tizim asosida                                                                                                                                                  |
| Kutiladigan natija                               | O'qituvchi:<br>Mavzu qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.<br>O'quvchilarning faolligi oshadi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Bir mashg'ulot jarayonida barcha o'quvchilar baholanadi.<br>O'quvchilar yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash                                                                                                                                                               |

|                 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
|-----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                 | boshqalarga yetkazish, savollarga javob berishga o'rgatiladi.<br>O'quvchi: Yangi bilim egallaydi, yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi, nutqi rivojlanadi, yaratuvchanlik fazilati rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi, qisqa vaqt ichida ma'lumotlarga ega bo'ladi.                                                                                                                                        |
| Kelgusi rejalar | O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishda davom etish bilan birga va darslarga tatbiq etadi. Mavzularni hayot voqealari bilan bog'laydi va solishtiradi, pedagogik bilim va kasbiy mahhorati oshadi.<br>O'quvchi: Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi, nazariy bilimni amalda qo'llash malakasi oshadi, o'z fikrini ravon bayon qila olishga, ko'p fikrlilikdan biron bir yechimga kelish malakasi oshadi. |

Darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasi:

7-sinf. Ona tili.

**Darsning mavzusi:** Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari.

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarga yangi mavzu haqida bilim, ko'nikma va malakalarni berish.

- a) ta'limiy maqsad – yordamchi so'zlar, bog'lovchilar bo'yicha olgan bilimlarini esga solish, bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad – o'quvchilardagi vatanparvarlik tuyg'usini yanada rivojlantirish, o'quvchilar o'rtrasida do'stona munosabatni kuchaytirish, ijobiy fazilatlarni rivojlantirish, ilm egallashning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdirish.
- d) rivojlantiruvchi maqsad – tezkorlik bilan fikrni jamlashga o'rgatish, topqirlik va hozirjavoblik ko'nikmasini, yaratuvchanlikni, fikrlarni solishtirishni shakllantirish.

**Darsning usuli:** aqliy hujum, "Himoya" o'yini, bahs-munozara.

**Darsning turi:** aralash

**Darsning jihozi:** darslik, AKT, doska, tarqatma, marker, proyeksion apparat

Dars bosqichlari yuzasidan vaqt taqsimoti:


5

| T/r | Dars bosqichlari                               | Ajratilgan vaqt |
|-----|------------------------------------------------|-----------------|
| 1.  | Tashkiliy qism                                 | 2 daqiqa        |
| 2.  | O'tilgan mavzuni so'rash va takrorlash         | 10 daqiqa       |
| 3.  | Yangi mavzuning bayoni.<br>Guruhlarda ishlash. | 20 daqiqa       |
| 4.  | O'rganilgan mavzuni mustahkamlash              | 8 daqiqa        |
| 5.  | O'quvchilarni baholash                         | 3 daqiqa        |
| 6.  | Uyga vazifa                                    | 2 daqiqa        |

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

1. Oldingi darsda berilgan ma'lumotlar asosida sinf xonasini tayyorlanadi va o'quvchilar qo'ng'iroq chalinishi bilan kirib o'zining guruhlarda ajratilgan joylarini egallaydilar va o'qituvchi bilan salomlashishadi.



O'qituvchi guruhdagi o'quvchilar bina kelishgan holda guruhlariga nom qo'yadi. Ushbu darsda o'quvchilar 3 guruhga bo'linishi lozim.

1- guruh "Zukkolar"

2- guruh "Bilimdonlar"

3- guruh "Donolar"

2. O'qituvchi o'quvchilarni dars boshlanishidan oldin "oltin qoidalar" ga amal qilishlarini eslatib o'tadi.

"Oltin qoidalar": - Gapirishni to'xtat, qunt bilan o'rgan.

- O'zingni tut, darsda faol bo'l.
- O'z fikringni bayon et va o'zgalar fikrini hurmat qil.
- So'zlovchi fikrini eshit, uning fikrini tushunishga harakat qil.
- Sabrli bo'l, so'zlovchining fikrini bo'lma.

### **O'tilgan mavzuni so'rash**

O'qituvchi o'tilgan mavzularni so'rab, uy vazifasini tahlil qiladi. Bunda har bir guruh a'zolari soat yo'nalishi bo'ylab daftarlarini almashtiradi. O'qituvchi uy vazifasini ya'ni, 184-mashq "Jahonga bo'y ko'rsatayotgan yoshlar" mavzusidagi matnni o'qib berishlarini va unda ishtirok etayotgan bog'lovchilarni izohlashlarini talab qiladi. O'quvchilar sherigini qanday bajarganligini nazorat qiladi va bir-birlarining xatolari ustida ishlaydi.

### **Yangi mavzuning bayoni**

1. *Gruhlarda ishlash.* O'qituvchi har bir guruhga bittadan tarqatmali savol beradi, ya'ni quyidagicha:

- 1-guruhga. Yordamchi so'zlar haqida ma'lumot bering. Darslikdagi yangi mavzuga doir 1-topshiriqni bajaring.
- 2-guruhga. Bog'lovchilar va ularning vazifasi haqida so'zlang. 2-topshiriqni bajaring.
- 3-guruhga. Bog'lovchilar ishtirok etgan kichik matn yarating.

Unda ham teng bog'lovchi, ham ergashtiruvchi bog'lovchilar ishtirok etsin.

2. *Guruh ishining taqdimoti.* Tayyor bo'lgan gruhlardan birin-ketin bir yoki undan ortiq o'quvchi doskaga chiqib, berilgan tarqatmadagi savol va topshiriqlar yuzasidan taqdimot o'tkazadi.

3. *Aqliy hujum.* O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi.

1. Yordamchi so'zlarga misollar keltiring.
2. Bog'lovchilarni sanang.

### 3. Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari qaysilar?

Shu o'rinda o'qituvchi kompyuterdan foydalanib slayd orqali "yashirin so'zni top" deb nomlangan boshqotirman proyeksion apparat orqali ko'rsatadi (kompyuter bo'lmasa, oq qog'oz va markerlardan foydalanishi mumkin).

1-guruhga yordamchi so'zni topish

2-guruhga teng bog'lovchilar topish

|                                                                         |
|-------------------------------------------------------------------------|
| UCHUNVAYORDAMBERDIISH<br>SAFSAMOLEKINNABIROQYO<br>YOKIDAMKEYIGOHAMMOSEN |
|-------------------------------------------------------------------------|

|                                                                             |
|-----------------------------------------------------------------------------|
| OTLAGANKABISO'ZBILANSHU<br>CHUNKIINIIDISHHAMYOKIBU<br>TOMONKURSICHUNKILGAKU |
|-----------------------------------------------------------------------------|

### 3-guruhga. Ergashtiruvchi bog'lovchilar

|                                                                                   |
|-----------------------------------------------------------------------------------|
| GOHIDAAGARSO'NGSARIOLDNA<br>BASHARTIKO'RANEGAKIYA'NIU<br>DOIRYARASHACHUNKIBOSHLAB |
|-----------------------------------------------------------------------------------|

Yuqoridagi

topshiriqni bajarishda

o'quvchilar "Himoya" o'yinidan foydalangan holda slaydni ekranga tushurib, o'zlarining javoblarini ko'rsatib izohlaydilar. O'quvchilar o'zlarining bajargan ishlarini solishtirib, yutuqlari va kamchiliklarini belgilab oladilar. O'qituvchi har bir guruhga slayd orqali test namunasidan taqdim etadi. ("Himoya" o'yini o'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Yangi mavzuni bayon qilishda foydalanish mumkin. Guruhlar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish yuzasidan ma'ruza tayyorlaydi. Topshiriqni bajarish uchun 2-3 minut vaqt ajratiladi. Ma'ruza tayyorlashda darslikdagi topshiriq hamda nazariy materiallardan foydalaniladi. Guruh a'zolari ichidan bitta asosiy ma'ruzachi va bitta qo'shimcha ma'ruzachi tanlaydi. Bu ma'ruzachilar guruhga berilgan mavzu bo'yicha darsni bayon qiladi. 1-ma'ruzachining kamchiligini qo'shimcha ma'ruzachi to'ldiradi. 2-guruh savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Keyin 2-guruh ma'ruza bilan chiqadi, 1-guruh esa savollar beradi. O'yin shu tarzda davom etadi. Ma'ruzachilarning bayoni to'liq bo'lmasa o'qituvchi to'ldiradi. Bu o'yinning ahamiyati shundaki, o'quvchilar kitob mustaqil ishlashga o'rganadi.)

1 – guruhga.

1. Lug'aviy ma'no bildirmasa, so'roqqa javob bo'lmasa, atash ma'nosiga ega bo'lmasa qanday so'zlar deyiladi?

a) mustaqil so'zlar.

b) yordamchi so'zlar

d) ko'makchi

e) bog'lovchi.

2. Bo'lovchi ishtirok etgan gapni toping.

a) Vatanim bilan faxrlanaman.

b) Men oyim uchun sovg'a oldim.

d) Kecha va bugun rejalashtirgan ishlarimni amalga oshirdim.

e) Sinfda faqat Farhod o'tirgan edi.

2 – guruhga.

1. Teng bog'lovchilar berilgan javobni toping.

a) yo....yo, kabi.

- b) chunki, negaki  
 d) balki biroq  
 e) agar, yani
2. Endi buva bilan nevara teng odamday gaplashishadi. Ushbu gapdagi bog'lovchi qanday bog'lovchi?
- a) ergashtiruvchi bog'lovchi  
 b) ko'makchi  
 d) teng bog'lovchi  
 e) bog'lovchi ishtirok etmagan.

3 – guruhga.

1. *Bilan* bog'lovchisi ko'makchi vazifasida kelgan gapni toping.
- a) Suv bilan yer egizak.  
 b) Odam odam bilan tirik.  
 d) Qalam bilan qog'ozlar sochilib yotibdi.  
 e) a va d javoblar to'g'ri.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar qatorini toping.
- a) hamda , biroq  
 b) ammo, lekin  
 d) basharti, yani  
 e) na-na, balki

#### **Dasrni mustahkamlash**

Oqituvchi o'quvchilar bilan yangi mavzu yuzasidan savol-javoblar asosida kichik suhbat o'tkazadi.

1. Bog'lovchilar qaysi belgisiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?  
 2. Teng bog'lovchilarni ayting va ular ishtirokida gap tuzing.  
 3. Ergashtiruvchi bog'lovchilarga misollar keltiring.

So'ngra o'quvchilar 185-186 – mashqlarni bajarishadi, o'qituvchi daftarlarni tekshiradi.

185-mashq. Namuna:

| Teng bog'lovchili gaplar                                                              | Ergashtiruvchi bog'lovchili gaplar                                     |
|---------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------|
| 1. <i>O'zi to'rt tarafi ko'z ilg'amaydigan darajada katta va sayhon bir yer ekan.</i> | 1. <i>U seskanib tushdi, chunki chol ro'parasiga kelib qolgan edi.</i> |

*O'quvchilarni baholash.* O'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlash, guruhlardagi faolligi, yangi mavzuni mustahkamlash jarayonidagi mustaqil va erkin fikrlashlari kuzatiladi va baholanadi. O'quvchilar faolligini o'tgan darslarga solishtirib, og'zaki rag'batlantiriladi. Masalan; Ofarin! Siz oldingi darslardan ko'ra bugun ajoyib qatnashdingiz. Barakalla, men bugun sizning fikrlaringizni eshitib xursand bo'ldim va hakoza.

**Uyga vazifa.** 187-mashq.

"Mehnat qilsang, rohat ko'rasan" mavzusida bog'li matn tuzing. Undagi bog'lovchilarning tagiga chizib, turini aniqlang.

## 9 – SINF. ONA TILI

**I Dars mavzusi:** Bogʻlangan qoʻshma gap

**II Darsning maqsadi:**

- a) **Ilmiy:** oʻquvchilarga bogʻlangan qoʻshma gap haqida nazariy va amaliy bilim berish uning nutqda qoʻllanishiga oid bilimlarni kengaytirish.
- b) **Tarbiyaviy:** oʻquvchilarni ona tilimizga hurmat matn va mashqlar orqali vatanparvarlik, insonparvarlik insoniy fazilatlarni ulugʻlash ruhida tarbiyalash.
- c) **Rivojlantiruvchi:** oʻquvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish soʻzlarni toʻgʻri qoʻllash, umumlashmalar hosil qilish, mantiqiy, izchil fikrlash malakasini oshirish.

**III Darsning shiori:**

Intilganga tole yor.

**IV Darsning jihozi:**

1. Ona tili darsligi.
2. Tarqatmali materiallar.
3. Elektron darslik.
4. Koʻrgazmali jadvallar.
5. Jarima, ragʻbat kartochkalar.

**V dars metodi:**

Noananaviy.  
Sayohat  
Aqliy hujum  
Guruhlarda ishlash  
Suhbat  
Musobaqa  
Test  
Didaktik tarqatmalar.

**VI Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism:** oʻquvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, oʻquvchilar tartibini saqlash, sinf tozaligini tekshirish, oʻquvchilar diqqatini jalb qilish.

**Dars taqsimoti:**

- |                                   |           |
|-----------------------------------|-----------|
| 1. Tashkiliy qismi                | 5 qaqiqa  |
| 2. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash | 10 qaqiqa |
| 3. Yangi mavzu bayoni             | 15 qaqiqa |
| 4. Mustahkamlash                  | 10 qaqiqa |
| 5. Uyga vazifa                    | 5 qaqiqa  |

**Dars quyidagi sher bilan boshlanadi.**

Ona tilim, sen borsan shaksiz  
Bulbul kuyin sheʼrga solaman  
Sen yoʻqolgan kunda shubhasiz  
Men ham toʻti boʻlib qolaman

Hurmatli o`quvchilar, mana ona tilimizning bu yil davlat tili maqomiga ega bo`lganligiga 23 yil bo`ldi. Ona tilimiz millatimiz ruhi hisoblanadi. Biz ona tilimizning imkoniyatlarini bilgan holda bugun “**Bog`langan qo`shma gap**” mavzusini o`tamiz. Avval sizlar bilan birgalikda “**Gap**” deb atalmish saltanat bog`iga sayohatga boramiz. Unda har bir bekatda ma`lum bir savollarga javob berishimiz lozim bo`ladi.

#### 1 – bekat.

Biz ona tili darsligimizning mualliflarini albatta bilishimiz zarur. Shu maqsadda javob:

1. Ona tili darsligimizning muallifi kim?

- Bizning ona tili darsligimizning muallifi. **N. M. Mahmudov, A.Nurmonov, Sh. Sobirov.**

#### 2 – bekat.

Ona tilimizni rivojlantirishga o`z hissalarini qo`shgan qanday tilshunos olimlarni bilasiz?

- Ona tilimizning rivojlantirishga XI asrda yashagan vatandoshimiz M.Zumaxshariy, Mir. A. Navoiy kabi bobolarimiz o`z hissalarini qo`shganlar.

#### 3 – bekat.

Nihoyat “**Gap**” bekatiga etib keldik. Uning atrofidagi so`z, so`z birlkmasi, gap kabi sintaksis bo`limi bizni kutib turganini ko`rdik.

O`quvchilar bilimni aniqlash maqsadida quyidagi savollar umumiy beriladi.

1. Ona tili fani qanday bo`limlardan iborat?

- Ona tili fani fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis bo`limlardan iborat.

2. Sintaksiz bo`limni nechanchi sinflarda o`rganmoqdamiz?

- Sintaksiz bo`limni 8 – 9 – sinflarda o`rganmoqdamiz.


3. Sintaksizda nimalar o`rganiladi?

- Sintaksizda so`z, so`z birikmalari, gap turlari o`rganiladi.

O`quvchilarga quyidagi chizma asosida sintaksis bo`limni tushuntirish mumkin.




Biz yangi mavzuga o'tishdan oldin sodda va qo'shma gaplarning farqini bilib olishimiz zarur. Shuning uchun quyidagi ko'rgazmaga e'tibor bering.



Masalan:

1. **Shu onga shiroq o'chdi** – sodda gap
2. **Birdaniga o'q uzuldi** - sodda gap

Qo'shma gaplar tasnifi quyidagicha



**Sodda gaplarni bog'lab turuvchi vazifalar**

1.  va
2. yo , yo
3. goh , goh
4.  shuning uchun
5.  chunki

3 – slayd

**Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlari –u (-yu) –da yuklamalari yordamida**

**bogʻlangan gaplar bogʻlangan qoʻshma gaplar deyiladi.** Qoʻshma gaplardan tashkil topoyatganligi uchun quyidagi qolip koʻrinishini belgilab olamiz.



Maʼlumki bogʻlovchi qoʻshma gaplar teng bogʻlovchilar biriktiruv zidlov, ayiruv boʻlsa esa bogʻlovchilardan hosil boʻladi.

Biriktiruv bogʻlovchilari bogʻlangan qoʻshma gap deb, qismlari oʻrtasida subab – natija munosabatli qoʻshma gaplarda voqea – hodisaning ketma – ketligi munosabatida boʻladi. Baʼzan – u (-yu) – da yuklamalari ham biriktiruv bogʻlovchilari bajargan vazifani bajaradi.

Masalan:

- 1) Toʻsatdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertayev paydo boʻldi.
- 2) Toʻsatdan eshik sharaqlab ochildi-yu, ostonada Ertayev paydo boʻldi.
- 3) Toʻsatdan eshik sharaqlab ochildi-da, ostonada Ertayev paydo boʻldi.

## 5 – slayd

**Zidlov bogʻlovchilari yordamida boglangan qoʻshma gaplar mazmunida zidlik munosabatini ifodalaydi. Ular – u (- yu) – da yuklamalari bogʻlash vazifasini bajaradi.**


|                                 |                                                                                                                                                                                                      |
|---------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Oy yoritadi, lekin isitmaydi | <div style="border: 1px solid black; width: 80px; height: 20px; display: inline-block;"></div> → <div style="border: 1px solid black; width: 80px; height: 20px; display: inline-block;"></div>      |
| 2. Oy yoritadi – yu, isitmaydi  | <div style="border: 1px solid black; width: 80px; height: 20px; display: inline-block;"></div> , - yu <div style="border: 1px solid black; width: 80px; height: 20px; display: inline-block;"></div> |
| 3. Oy yoritadi - da, isitmaydi  | <div style="border: 1px solid black; width: 80px; height: 20px; display: inline-block;"></div> , - da <div style="border: 1px solid black; width: 80px; height: 20px; display: inline-block;"></div> |

## 6 – slayd

Ayiruv bogʻlovchilari bogʻlangan qoʻshma gaplar, ifodalangan voqea hodisalarning galma – gal roʻy berishini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini taʼkidlaydi.


Masalan:

Dam jahlim chiqadi, dam kulgum qistaydi.



Boʻlsa, esa soʻzlari yordamida bogʻlangan qoʻshma gaplar, ular oʻrtasida qiyoslash va zidlash munosabatini ifodalaydi.

Toʻgʻri til tosh yoradi, egri til esa bosh yoradi.



**Oʻquvchilardan gapni sintaktik tahlil qilish soʻraladi.**

Qiyoslanuvchi boʻlakdan soʻng boʻlsa, esa soʻzlari keladi.

**Guruhlar bilan ishlash.**

Oʻquvchilar uch guruhga boʻlinadilar

|                       |                    |                     |
|-----------------------|--------------------|---------------------|
| <b>1. BILIMDONLAR</b> | <b>2. ZUKKOLAR</b> | <b>3. TOPQIRLAR</b> |
|-----------------------|--------------------|---------------------|

Har bir guruhga berilgan topshiriq.

### 1 – TOPSHIRIQ 1 – GURUHGA

Dekabr oyining boshida bir qor yog`di, ...

(Davom ettiring va bog`lovchilarni o`z o`rnida qo`yib sintaktik tahlil qiling)

### 2 – TOPSHIRIQ 2 – GURUHGA

Do`st yomon kuningda asq otadi, ...

(Davom ettiring va bog`lovchilarni o`z o`rnida qo`yib sintaktik tahlil qiling)

### 3 – TOPSHIRIQ 3 – GURUHGA

Yo siz keling, ...

(Davom ettiring va bog`lovchilarni o`z o`rnida qo`yib sintaktik tahlil qiling)

### 4 – TOPSHIRIQ 4 – GURUHGA

U kim bo`lsa bo`lsin, ...

(Davom ettiring va bog`lovchilarni o`z o`rnida qo`yib sintaktik tahlil qiling)

**Guruhlar bilan ishlashning yana bir turi matnlar ustida ishlash.**


1 – guruhga: matndan zidlov bog`lovchi bog`langan qo`shma gapni toping.

**Berilgan gapdan qo`shma gapni toping va sintaktik tahlil qiling.**

Qadim zamonda Kushoniylar davlatida pahlovon Shukrulloh ismli sarkarda yashagan ekan va uning davrug`i ellarda doston ekan. Sarkarda jangga sovut dubulg`asiz, qalqonsiz kirarkan hamda bu jangda uning qo`shini hamisha g`alaba qilar ekan.

Matnda birinchi gap qo`shma gap, bog`langan qo`shma gap ikki sodda gapdan tuzulgan.

Qolipi



**Birinchi sodda gap tahlili.**

Qadim zamonda Kushoniylar davlatida pahlovon Shukrulloh ismli sarkarda yashagan ekan.

**Ikkinchi sodda gap tahlili.**

Uning davrug`i ellarda doston ekan

**Navbatdagi topshiriq test mashg`uloti olib boriladi.**

3 ta guruhga quyidagi test savollari tarqatiladi.

Ushbu birliklarning qaysi biri qo`shma gapning teng huquqli qismlarini bog`lashda ishtirok etadi?

- a) – a, - yu, - da
- b) va, hamma, ammo
- c) chunki, shuning uchun
- d) a va b

**2 – test.**

Qaysi qatordagi gapda – u, - yu, yuklamasi zidlov bog`lovchisi vazifasida kelgan?

- a) Siz ham “ish”, “ish” deb umringizni san`atga baxshida qilganingizda nima bo`ldingiz – u, nigora nima bo`lardi?
- b) Qiziq, odamning umri shuncha qisqa – yu, tipirchilashi olamni tutadi.
- c) Havoni quyuq tuman bosdi – yu hech narsa ko`rinmadi.
- d) Kun kelar – u sendan meni begona qilar bu she`r.

### 3 – test.

Yomg'ir tindi – yu shamol to'xtamadi ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

- a) Biriktiruv munosabatli
- b) Ayiruv munosabatli
- c) Zidlov munosabatli
- d) Ergash gapli

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### Uyga vazifa

Ushbu qolip asosida 4 ta gap tuzing va sintaktik tahlil qiling.

1. 

|  |  |
|--|--|
|  |  |
|--|--|

 va 

|  |
|--|
|  |
|--|

  
V
2. 

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|--|--|--|

, ammo
3. Dam 

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|--|--|--|

 dam
4. 

|  |  |  |
|--|--|--|
|  |  |  |
|--|--|--|

, esa

### Adabiyot 9 -sinf

#### Darsning texnologik xaritasi

|                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mavzu:</b>                                        | Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olgan taassurotlarim                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>Darsning maqsadi:</b>                             | <b>Ta'limiy maqsad:</b> DTS asosida o'quvchilarni «Kecha va kunduz» romani mazmuni bilan tanishtirish;<br><b>Rivojlantiruvchi maqsad:</b> O'quvchilarda mantiqiy fikrlash, erkin mushohada yuritish, mulohazalarni mustaqil bayon etish, fikrlarini dalillash ko'nikmalarini shakllantirib borish;<br><b>Tarbiyaviy maqsad:</b> O'smir yoshlarni milliy qadriyatlarimizga e'tibor, inson umrining mazmuni to'g'risida fikrlashga yo'naltirish; |
| <b>Dars mazmuni:</b>                                 | Cho'lpon dastlabki ta'limni maktabda olgan. Xotirasi yaxshi bo'lib, Qur'oni Karimni yod olgan. So'ng madrasada ta'lim olib, fors va arab tillarini o'rgangan. Boshqird olimi Zaki Validiy Va Fitrat asarlari ta'sirida jadid qarashlari bilan tanishgan. U, „Qalandar“, „Mirza qalandar“, „Q“, „Andijonlik“ va „Cho'lpon“ taxalluslari bilan she'rlarini chop ettirgan. Bugun uning „Kecha va kunduz“ asari haqida ma'lumot tahlil qilinadi.   |
| <b>Dars turi:</b>                                    | Aralash dars                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <b>O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi:</b> | <b>O'qitish metodlari:</b> "Ijobiy fikrlar piramidasi", "Ikki qismli kundalik", "3/3 metodi", "Suhbat", "Guruhlarda ishlash".<br>Dars jihozi Cho'lpon portreti, "Kecha va kunduz" romani                                                                                                                                                                                                                                                       |

|                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
|--------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                                            | nashri, plakatlar, rangli markerlar.<br><b>Vosita:</b> mavzuga oid ko'rgazmalar va tarqatmalar, rasmlar<br><b>Nazorat:</b> o'z-o'zini nazorat qilish, guruh ichida nazorat<br><b>Baholash:</b> o'z o'zini baholash, guruh faoliyatini baholash<br><b>Uyga vazifa:</b> Matnni ravon o'qish va qayta hikoya qilish |                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>Dars bosqichlari va dars taqsimoti:</b> | I. Tashkiliy qism –3 daqiqa<br>II. O'tiladigan yangi mavzuni takrorlash – 7 daqiqa<br>III. Yangi mavzu asosidagi interfaol metodlar – 27 daqiqa<br>IV. Kichik ma'ruza – 5 daqiqa<br>V. Darsga yakun yasash – 3 daqiqa                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>Kutiladigan natijalar:</b>              | <b>O'qituvchi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                | <b>O'quvchilar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|                                            | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yangi nazariy bilimlar beradi.</li> <li>• Dars jarayonini maqsadli va oqilona boshqaradi.</li> <li>• Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot to'plashga yo'naltiradi.</li> </ul>                                                                                                | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yangi nazariy bilimlar olishadi.</li> <li>• Axborot izlash, to'plash va foydalanish ko'nikmalari shakllanadi.</li> <li>• O'z-o'zini baholaydi hamda o'z-galar faoliyatini tahlil qiladi.</li> <li>• Hamkorlik ko'nikmasi shakllanadi</li> </ul> |
| <b>Kelgusi rejalar:</b>                    | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mavzuga oid qo'shimcha materiallar to'playdi, Cho'lpon ijodi haqida videolavhalar yig'adi, elektron darsliklardan unumli foydalangan holda tashkil qilishga harakat qiladi</li> </ul>                                                                                   | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mavzuni takroran o'qib chiqadi va bilimlarini mustahkamlaydi. Mavzuga oid materiallarni to'playdilar. Mavzuni hayot bilan bog'laydi.</li> </ul>                                                                                                 |

**I. Darsning mavzusi :** Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olgan taassurotlarim

**II. Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy maqsad:** DTS asosida o'quvchilarni «Kecha va kunduz» romani mazmuni bilan tanishtirish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarda mantiqiy fikrlash, erkin mushohada yuritish, mulohazalarni mustaqil bayon etish, fikrlarini dalillash ko'nikmalarini shakllantirib borish;

**Tarbiyaviy maqsad:** O'smir yoshlarni milliy qadriyatlarimizga e'tibor, inson umrining mazmuni to'g'risida fikrlashga yo'naltirish;

**III. Dars turi:** Aralash dars

**IV. O'qitish metodlari:** "Guruhlarda ishlash", "Mozaika", "Telegramma", "Suhbat", "Klaster".

**V. Dars jihozi:** Adabiyot darsligi, plakat, kartochkalar, rag'batlantiruvchi qog'ozlar, doska, rangli bo'rlar, skoch, markerlar.

**VI. Darsning borishi:**

**Mavzu:** "Kecha va kunduz" romani.

Reja: 1. Zebi – insoniy beg'ubor qiz.

2. Razzoq so'fi faqat eshonga ishonadi.

3. Akbarali mingboshining "odamiyligi"

4. Asarda kechagi kunning ifodalanishi.

(Barcha yozib bo'lgach, guruhlar uchun vaqt belgilanib, tayyorlanish jarayoni kechayotgan muddatda o'qituvchi guruhlardagi ish jarayonini kuzatib boradi agar lozim bo'lsa maslahat

berishi mumkin. Lekin o'qituvchining fikri hukumron fikr bo'lmashligi lozim. Vaqt tugagach, guruhlardan bir o'quvchi taqdimotga chiqadi.)

O'qituvchi: O'tgan darslarda qaysi mavzularni o'rgandik?

O'quvchilar: Cho'lpon hayoti va ijodini o'rgandik.

-Umr yo'li, fojiaiy vafoti haqida bilib oldik.

-She'rlaridan namunalar o'qidik.

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar bugun biz „Kecha va kunduz“ romanini o'rganamiz. Bu borada sizlarga uyga topshiriq berilgan edi. Bugun ushbu asardan berilgan parchani o'qib kelishlaringiz haqida topshiriq berilgan edi.

Birinchi bosqich:

Undan oldin Cho'lpon to'grisida bilganlarimizni esga olish uchun „Telegramma“ metodidan foydalanamiz. (Har bir guruh ikkinchi bir guruhga Cho'lpon ijodi haqida bilgan ma'lumotlarini telegrammada ma'lum qiladi)

Tayyorlanish : 3 daqiqa

Taqdimot : Har bir guruhga 1 daqiqa.

Masalan bir guruhning telegrammasi quyidagicha bo'ladi.

Telegramma

Cho'lpon dastlabki ta'limni maktabda olgan. Xotirasi yaxshi bo'lib, Qur'oni Karimni yod olgan. So'ng madrasada ta'lim olib, fors va arab tillarini o'rgangan. Boshqird olimi Zaki Validiy Va Fitrat asarlari ta'sirida jadid qarashlari bilan tanishgan. U, „Qalandar“, „Mirza qalandar“, „Q“, „Andijonlik“ va „Cho'lpon“ taxalluslari bilan she'rlarini chop ettirgan.

Bir guruhning telegrammasini ikkinchi guruh taqdim qiladi.

O'qituvchi: uyga berilgan topshiriqlar nimalardan iborat edi?

Ikkinchi bosqich: Har bir guruhga tarqatma beriladi. Unda o'quvchilar „Mozaika“ metodi asosida chalkashtirilib berilgan matnni o'z asliga keltiradilar

### **Tarqatmalarning asl varianti**

1 – tarqatma

Asl variant.

Poshshaxonning qarori qanday qo'rqich bo'lsa, uning bajarilishi shu qadar tez va oson bo'ldi: baqqoldan yashinrincha oldirilgan kuchala kichkinagina dekchada ertadan – kechgacha qaynadi: ertalab uning suvi bir choynakka solinib, Zebining uyiga olib kirilishga mo'ljallandi.

Shunday qilib, o'zi yo'lg'iz qolgan Poshshaxon bemalol Zebining uyiga kirdi... Tokchada bir kichkina choynakda „tabarruk“ suv bor edi, u suvga Razzoq so'fining iltimosi bilan eshonning o'z duo o'qib dam slogan, uni ichgandan so'ng tez fursatda Zebi homilador bo'lib, bola tug'ishi kerak edi. Choynakdagi „tabarruk“ suvni ho'l obrezga to'kib tashlab, o'rniga o'z choynagidagi suvni to'ldirdi. Tamom „Zebi kechqurun chiqib suvdan ichadida, til tortmay o'ladi. To'rtinchi xotinning uchinchidan boshla kundoshi bo'ladimi? Muni yosh bola ham biladi.“

2- tarqatma

Asl variant.

Mingboshi birin – ketin ikki piyolani to'latib ichdi, yengi bilan og'zini arttdi. So'ngra bir piyolani ....Zebiga uzatdi:

- Ma, ich1 Odam bo'lasan1!
- Voy o'laqolay! Aroq ichamanmi? Qo'ying gapirmang!
- Odam bo'lasan, deyman !O!O-ol!!!

Zebi orqasiga chekinib yig'lab yubordi.

- Qoy mayli, ichmasang ichma, dedi mingboshi. - O'zim ichaman!

Bir shihsni tamom qilib yuvuqsiz qo'li bilan oshga chang soldi. Oshning yarmi barmoqlari orasidan dasturxonga, ko'rpa – to'shakka, o'zining liboslariga to'kilardi. Zebi devorga suyanib bu qo'rqinch kuyovni tomosha qilardi...

Mingboshi og'ziga to'la oshi bilan: "Netayxon aylanay yodimga tushdi-e..." deb xirgoyi mqildi. Oshli og'iz bilan boshlangan xirgoyi tomoqqa tiqildi, mingboshi qalqib ketdi va og'zidagi oshni kosaga purkab yana oshga qo'l uzatdi.

### 3- tarqatma

#### Asl variant.

Sud majlisi bo'ladigan keng zalda shamollar uchib o'ynar edi.

Zebi ikki knvoyning yalang'och qilichi o'rtasida zalga kirib keldi: ustida qora burgut parangi, qora chimmat, oyog'ida qora amirkon mahsi – kavush bilan sud qarshisiga kelib to'xtadi.

Sud raisi tilmochga yuzlandi:

- Aytingiz, aybdor yuzini ochsin.

Tilmoch bu buyruqni Zebiga tushuntirib berdi.

- Voy o'la qolay! Shuncha nomahramning oldida yuzimni ochamanmi? Undan ko'ra o'lganim yaxshi emasmi?

Bu so'z tarjima qilib berilgach, pastdagilarning deyarli hammasi, sud hay'atidan bir necha kishi yengilgina kulib oldilar.

Garnizon boshlig'i: Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz, yuzini ochmasa bo'lmaydi. Sudning qoidasi shu! Parangi ostida aybdordan boshqa kishining hozir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun biz uning yuzini ochtirishga majburmiz. Aytingiz qarshilikdan foyda yo'q!

Zebi xuddi o'yinda she'rigiga achchiq qilgan boladay teskari burilib oldi. U indamay turganligidan sud raisi yana so'z oldi:

Yaxshilab tushuntiringiz, yuzini ochmasa, sud majlisini olib borolmayman.

- Olib bormasa mayliga...-dedi Zebi.- Bilganini qilsin!

### 4- tarqatma

#### Asl variant

- Nega u suvni mingboshiga berdingiz?

- Juda tashna bo'lib so'ragan edi, shundoqqina tokchada olib uzatdim.

- Choynakda zahar borligini bilarmidingiz?

- Zebi qattiqroq va cho'zibroq javob berdi:

- Y-o'-q!... O'libmanmi o'z erimni o'ldirib.

Uning bu so'nggi javobidan qiz bolaning o'z o'rtog'iga o'zini oqlab gapiradigan soda gaplaridagigunohsiz ohang boridi: "Voy o'laqoling, men shunaqa dermidim?"

Sud raisi prokurorga so'z berdi.

O'ldirilgan odam Rusiya davlatiga va podshoga sadoqat bilan tanilgan odam edi. Uni "yosh sart" maxfiylari, ayniqsa ularning dushmanimiz bo'lgan Turkiya bilan fikran bog'lanishgan unsurlari yomon ko'rardilar. Meh bu "sodda" va "gunohsiz" sart ayolining shunday unsurlar qo'lida o'yinchoq bo'lmaganidan amin emasman. Biz sart xalqiga allanechuk beparvolik bilan qarab o'rganganmiz: "Qo'yday yuvosh, ular!" - deymiz.

Sud hay'ati o'rnidan turib ichkariga chekildi.

- "Ana" - deb o'yladi Zebi. - o'zim aytgan. Hamma gap oyday ravshan... Endi uyimni topib ketalamikanman?"

Tilmoch hukmnomani to'rt og'izgina qilib eshittirdi:

- Aybdor Zebinisa Razzoq So'fi qizi, harbiy sudning hukmi bilan yeti yil Sibir

qilindingiz. Norozi bo'lib ariza bersangiz mumkin. Sud raisining ishorati bilan qilich

yalang'ochlagan konvoylar Zebini olib chiqib ketichdi. Zebi chimmat ostida ho'ngur- ho'ngur yig'lamoqda edi.

## 5- tarqatma

### Asl variant

Juma namoziga borganda Razzoq so'fi domladan Akbarali mingboshini xotini o'ldirganini eshitdi.

So'fining arz qilib boradigan birdan- bir mahkamasi – yana eshonboboning xonaqolari edi. Eshon yoq edi. Kutib o'tirdi.

Nihoyat, eshonbobo keldilar, Kayflari chog', nash'alari baland, ovozlarida allaqanday bir sho'xlik bor edi. "To'yda qimiz ichgan ga o'xshaydilar, - deb o'yladi so'fi. - Ko'p ichsa ham u odamni aynitarmish. Qishda qimiz nima qiladi? Hayronman.. Xayr, o'zlari biladilar".

- Taqsir, biron maslahat....

- Maslahat? – dedi eshon, xoxolab kuldi. - Odam o'ldirgan bolaning otasiga qanday maslahat bo'ladi, so'fi? Bolasining yoniga nima uchun otasini jo'natmaydi bu axmoq o'rus? Adolat bormi kofirda?!

So'fining tanlariga birdaniga o't tutashganday bo'ldi. Qo'llari ixtiyorsiz balandga ko'tarilgandi. Faqat qarshisida kim? - Pir! - Eshon! Eshon! Eshonbobo! Yo'q, unga qo'l ko'tarib bo'lmaydi! Yana bir onda so'fi suvday suyuldi, qorday eridoriyat oyoqlari bilan omonat yerni bosib tashqariga chiqdi...

Ertasi kuni xonaqoda namozdan keyin "sukut"ga ketib, mudrab o'tirgan eshonni Razzoq so'fining telba hayqirishlari uyg'otib yubordi.

Og'zidan ko'pik sochib, boshlarini serkib, serkib so'zlanardi:

- Xudo xudo bo'lib turib, avval jon beradi, undan keyin oladi. sen kimsan? Xudodan zo'rmissan, taqsir?

- Bay- bay! Tiling kesilsin, badbaxt! Kofir!

- Yer jonidan – ilgari beradi, keyin oladi. Yerdan ham kuchlimisan, taqsir

- Nima bo'ldi senga so'fi? Jinni bo'ldingmi?

- O'zlari jinni, taqsi, o'zlari! Eshaklari jinni, itlari..

- hay kim bor? Bolalar! – deb qichqirdi eshon.

- o qochma taqsir! Hovuchingni och! Men gadoy bo'lsam hamxurjunimning ikki ko'zi to'ladir.. Sendaqalarni necha yil boqishga yarayman...

Eshonning muridlari Razzoq so'fini tutib suvga tashladilar so'ngra xipchin bilan savaladilar.

Ikki kundan so'ng u musichadek yuvosh va muloyim bo'lgan edi. Xayoli boshqa joyda edi.

Uch kundan so'ng juma kuni erta namozga turgam muridlar eshonning xonaqoda o'lib yotganini ko'rdilar.

So'fidan darak yo'q edi.

### Tarqatmalarning chalkashtirilgan varianti

#### 1 – tarqatma

Chalkashtirilgan variant.

1. Poshshaxonning qarori qanday qo'rqich bo'lsa, uning bajarilishi shu qadar tez va oson bo'ldi:
2. Muni yosh bola ham biladi."
3. To'rtinchi xotinning uchinchidan bosha kundoshi bo'ladimi?
4. Tokchada bir kichkina choynakda "tabarruk" suv bor edi, u suvga Razzoq so'fining iltimosi bilan eshonning o'z duo o'qib dam slogan, uni ichgandan so'ng tez fursatda Zebi homilador bo'lib, bola tug'ishi kerak edi.
5. ertalab uning suvi bir choynakka solinib, Zebining uyiga olib kirilishga mo'ljalland
6. Shunday qilib, o'zi yo'lg'iz qolgan Poshshaxon bemalol Zebining uyiga kirdi...
7. Choynakdagi "tabarruk" suvni ho'l obrezga to'kib tashlab, o'rniga o'z choynagidagi suvni to'ldirdi.
8. Tamom "Zebi kechqurun chiqib suvdan ichadida, til tortmay o'ladi.

9. Baqqoldan yashinrincha oldirilgan kuchala kichkinagina dekchada ertadan – kechgacha qaynadi:

2- tarqatma  
chalkashtirilgan variant.

- 1.-Ma , ich! Odam bo`lasan!
- 2.Zebi devorga suyanib bu qo`rqinch kuyovni tomosha qilardi...
- 3.Qoy mayli , ichmasang ichma , dedi mingboshi.- O`zim ichaman!
- 4.Mingboshi birin – ketin ikki piyolani to`latib ichdi, yengi bilan og`zini arttdi.So`ngra bir piyolani ....Zebiga uzatdi:
- 5.Voy o`laqolay!Aroq ichamanmi?Qo`ying gapirmang!
- 6.Zebi orqasiga chekinib yig`lab yubordi.
- 7.Bir shishani tamom qilib yuvuqsiz qo`li bilan oshga chang soldi.
- 8.Oshning yarmi barmoqlari orasidan dasturxonga , ko`rpa – to`shakka , o`zining liboslariga to`kilardi.
- 9.Oshli og`iz bilan boshlangan xirgoyi tomoqqa tiqildi, mingboshi qalqib ketdi va og`zidagi oshni kosaga purkab yana oshga qo`l uzatdi.
- 10Mingboshi og`ziga to`la oshi bilan : "Netayxon aylanay yodimga tushdi-e..." deb xirgoyi qildi.
- 11.Odam bo`lasan , deyman !O!O-ol!!!

3- tarqatma  
chalkashtirilgan variant.

- 1.Sud majlisi bo`ladigan keng zalda shamollar uchib o`ynar edi.
- 2.Bu so`z tarjima qilib berilgach, pastdagilarning deyarli hammasi , sud hay`atidan bir necha kishi yengilgina kulib oldilar.
- 3.Sud raisi tilmochga yuzlandi:Aytingiz, aybdor yuzini ochsin.
- 4.Tilmoch bu buyruqni Zebiga tushuntirib berdi.
- 5.Voy o`la qolay!Shuncha nomahramning oldida yuzimni ochamanmi?Undan ko`ra o`lganim yaxshi emasmi?
- 6.Garnizon boshlig`i:Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz,yuzini ochmasa bo`lmaydi.
- 7.Sudning qoidasi shu!
- 8.Paranji ostida aybdordan boshqa kishining hozir bo`lishiga yo`l qo`ymaslik uchun biz uning yuzini ochtirishga majburmiz.
- 9.Aytingiz qarshilikdan foyda yo`q!
- 10.U indamay turganligidan sud raisi yana so`z oldi:
- 11.Yaxshilab tushuntiringiz, yuzini ochmasa , sud majlisini olib borolmayman.
- 12.-Olib bormasa mayliga...-dedi Zebi.-Bilganini qilsin!
13. Zebi ikki knvoyning yalang`och qilichi o`rtasida zalga kirib keldi: ustida qora burgut paranji, qora chimmat, oyog`ida qora amirkon mahsi – kavush bilan sud qarshisiga kelib to`xtadi.
- 14.Zebi xuddi o`yinda she`rigiga achchiq qilgan boladay teskari burilib oldi

4- tarqatma  
chalkashtirilgan variant

- 1.Zebi chimmat ostida ho`ngur- ho`ngur yig`lamoqda edi.
- 2.-Juda tashna bo`lib so`ragan edi, shundoqqina tokchada olib uzatdim.
- 3.Norozi bo`lib ariza bersangiz mumkin.Sud raisining ishorati bilan qilich yalang`ochlagan konvoylar Zebini olib chiqib ketichdi
- 4.-Nega u suvni mingboshiga berdingiz?
- 5.-Choynakda zahar borligini bilarmidingiz?
- 6.Uning bu so`nggi javobidan qiz bolaning o`z o`rtog`iga o`zini oqlab gapiradigan soda

gaplaridagigunohsiz ohang boridi: "Voy o'laqoling, men shunaqa dermidim?"

7. Sud raisi prokurorga so'z berdi.
8. O'ldirilgan odam Rusiya davlatiga va podshoga sadoqat bilan tanilgan odam edi.
9. Uni "yosh sart" maxfiylari, ayniqsa ularning dushmanimiz bo'lgan Turkiya bilan fikran bog'lanishgan unsurlari yomon ko'rardilar.
10. Men bu "sodda" va "gunohsiz" sart ayolining shunday unsurlar qo'lida o'yinchoq bo'lmaganidan amin emasman.
11. Biz sart xalqiga allanechuk beparvolik bilan qarab o'rganganmiz: "Qo'yday yuvosh, ular!" - deymiz.
12. Sud hay'ati o'rnidan turib ichkariga chekildi.
13. "Ana" - deb o'yladi Zebi. - o'zim aytgan. Hamma gap oyday ravshan... Endi uyimni topib ketalamikanman?"
14. Tilmoch hukmnomani to'rt og'izgina qilib eshittirdi:  
- Aybdor Zebinisa Razzoq So'fi qizi, harbiy sudning hukmi bilan yetti yil Sibir qilindingiz.
- 15. Zebi qattiqroq va cho'zibroq javob berdi: Yo'-q!... O'libmanmi o'z erimni o'ldirib.

#### 5- tarqatma chalkashtirilgan variant

1. Juma namoziga borganda Razzoq so'fi domladan Akbarali mingboshini xotini o'ldirganini eshitdi.
2. O'zlari jinni, taqsi, o'zlari! Eshaklari jinni, itlari..  
- Hay kim bor? Bolalar! - deb qichqirdi eshon.
3. -o qochma taqsir! Hovuchingni och! Men gadoy bo'lsam hamxurjunimning ikki ko'zi to'ladir.. Sendaqalarni necha yil boqishga yarayman...
4. Ertasi kuni xonaqoda namozdan keyin "sukut"ga ketib, mudrab o'tirgan eshonni Razzoq so'fining telba hayqirishlari uyg'otib yubordi.
5. So'fining arz qilib boradigan birdan- bir mahkamasi - yana eshonboboning xonaqolari edi. 3. Eshon yoq edi. Kutib o'tirdi.
6. Nihoyat, eshonbobo keldilar, Kayflari chog', nash'alari baland, ovozlarida allaqanday bir sho'xlik bor edi.
7. "To'yda qimiz ichgan ga o'xshaydilar, - deb o'yladi so'fi. - Ko'p ichsa ham u odamni aynitarmish. Qishda qimiz nima qiladi? Hayronman.. Xayr, o'zlari biladilar".
8. Taqsir, biron maslahat.... 7. Maslahat? - dedi eshon, xoxolab kuldi. - Odam o'ldirgan bolaning otasiga qanday maslahat bo'ladi, so'fi?
9. Bolasining yoniga nima uchun otasini jo'natmaydi bu axmoq o'rus? Adolat bormi kofirda?!
10. Uch kundan so'ng juma kuni erta namozga turgam muridlar eshonning xonaqoda o'lib yotganini ko'rdilar. So'fidan darak yo'q edi.
11. Faqat qarshisida kim? - Pir! - Eshon! Eshon! Eshonbobo! Yo'q, unga qo'l ko'tarib bo'lmaydi!
12. Yana bir onda so'fi suvday suyuldi, qorday eridi oriyat oyoqlari bilan omonat yerni bosib tashqariga chiqdi...
13. Og'zidan ko'pik sochib, boshlarini serkib, serkib so'zlanardi:  
- Xudo xudo bo'lib turib, avval jon beradi, undan keyin oladi. sen kimsan? 14. Xudodan zo'r misan, taqsir?
- Bay- bay! Tiling kesilsin, badbaxt! Kofir!
- 15. Yer jonidan - ilgari beradi, keyin oladi. Yerdan ham kuchlimisan, taqsir
- Nima bo'ldi senga so'fi? Jinni bo'ldingmi?
16. Eshonning muridlari Razzoq so'fini tutib suvga tashladilar so'ngra xipchin bilan savaladilar.
17. Ikki kundan so'ng u musichadek yuvosh va muloyim bo'lgan edi. Xayoli boshqa joyda edi.

Har bir guruhning taqdimoti o'tkaziladi.

Uchinchi bosqich. Bu topshiriqni o'quvchilar "Klaster" metodidan foydalanib taqdimot tayyorlashlari mumkin.

1-guruh: "Poshshaxonning nayranglari" haqida.

2-guruh " Savodsiz Akbaralining yashash tarsi. mingboshining dunyoqarashi" degan mavzuni yoritishga harakat qiladi.

3-guruh "Zebining suddagi holati"


4-guruh "Zebiga sudda berilgan hukm "

5- guruh "Razzoq so'fining haqiqati" ga sharh beradi.

O'qituvchi: Bu topshiriqlarni siz uyda tayyorlagansiz.

Siz berilgan topshiriqlar taqdimoti uchun tayyorlanib, diqqatingizni bir joyga to'plab olishingiz uchun 5 daqiqa vaqt beriladi  
(Guruhlarga zarur plakat va markerlar beriladi)

Masalan 1 – guruhning taqdimoti quyidagicha bo'lishi mumkin.



To'rtinchi bosqich: Bu bosqichda mavzuni umumlashtirish uchun o'qituvchi suhbat metodida ish olib boradi. O'qituvchining savollari:

1. Zebining boshiga tushgan kechinmalarga o'zi aybdormi?
2. Razzoq So'fining eshonga bo'lgan munosabati nima uchun o'zgardi?
3. Zebining suddagi holatiga qanday baho berasiz?
4. Hozirgi sharoit xotin – qizlarga qanday sharoitlar yaratilgan?

O'quvchilar bugun o'rgangan ma'lumotlarini yana bir marta eslab takrorlaydilar.

Uyga vazifa qilib o'quvchilarga "Zebiga maktub" yozib kelish topshirig'i beriladi.

O'quvchilar takomillashtirilgan reyting tizimida baholanadi.

Dars o'qituvchinig xulosasi bilan yakunlanadi.

**Mavzu:** 9-sinfda A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani

**Darsning maqsadi:**

1. Asar mazmunini badiiy matnning lisoniy tahlili orqali ochib berish.
2. O'quvchilar ongida milliy iftixor va g'urur, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakillantirish.
3. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars usuli:** bahs-munozara, muammoli dars.

**Dars jihozi:** 9-sinf adabiyot darsligi, A.Qodiriy portreti, yilnoma, video va audio texnikasi, yozuvchi asarlaridan namunalar, mavzuga doir rasmlar.

**Fanlararo aloqa:** Ona tili, tarix, tasviriy san'at.

**Darsning borishi**

**R E J A:**

1. "O'tgan kunlar" romanining mavzu va qoidasi, yozilish tarixi.
2. Romandagi timsollarda tavsif.
3. Asarning badiiy xususiyatlari.
4. A.Qodiriy va "O'tgan kunlar" romani kishilar qalbida o'chmas xotiradir.

Yozuv taxtasi oldida A.Qodiriy portreti, asarlaridan namunalar, yozuvchi va uning asarlaridan rasmlar ko'rgazmasi, video, audio texnikalari joy olgan. Yozuv taxtasiga Qodiriy haqidagi yilnoma osib qo'yilgan.

Dars Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning A.Qodiriy haqidagi fikrlari yozilgan audio tasmasini tinglash bilan boshlanadi.

"A.Qodiriy romanidagi birinchi navbatda g'oyatda hayotiyli bilan ajralib turadi. Qodiriyning tilidan xalqning boy va ajoyib tilini yaxshi bilganligi yaqqol seziladi. U ma'lum nuqsonlaridan qat'iy nazar tug'ma epik yozuvchi, keng ko'lamdagi master, yuksak ma'nodagi realistik san'atkor edi".

**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, hozir tinglagan fikr orqali bugun A.Qodiriy va uning "O'tgan kunlar" romani borasida bahs yuritishimizni anglab olgan bo'sangiz kerak. A.Qodiriy haqidagi bu fikr muallifi kim deb o'ylaysiz?

**1-o'quvchi:** Yuqorida yangragan fikr muallifi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek ekanligi bizga ma'lum. Chunki Respublikamiz bo'ylab Oybek tavalludining 100 yilligi tantanali nishonlanmoqda. Oinayi jahon orqali buyuk iste'dod sohibi haqida ko'rsatuvlar namoish etilmoqda.

**O'qituvchi:** Darhaqiqat Oybek o'zbek adabiyoti osmonidagi porloq yulduzlardan biridir. Bugun biz Oybek zamondoshlaridan biri A.Qodiriy haqida bahs yuritamiz. Darslab Qodiriy haqidagi fikrlarimizni mustahkamlab olsak.

**1-o'quvchi:** Men A.Qodiriyning hayot yo'li haqida so'zlamoqchiman. A.Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentning mashxur Eshonguzar mahallasida Qodirbobo oilasida dunyoga keladi. Oilada moddiy muxtojlik tufayli 9-10 yoshida maktabga boradi. 2-3 yil eski uslubda o'qigach bir boyning qo'lida rus-tuzgem maktabini tugatib, Toshkentdagi Abulqosim madrasasida ta'lim oladi.

1924-yil o'zi prikazchi bo'lib ishlagan Rasulmuhammad boyning qizi Rahbaroyga uylanib, 2

o'g'il, 3 qiz farzand ko'radi.

1937-yil 31-dekabr kuni "Xalq dushmani" tamg'asi bilan xibsga olinib, 1938-yil 4-oktyabrda Cho'lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan birga qatl etilgan.

**2-o'quvchi:** Men Qodiriyning ijodiy faoliyatiga to'xtalmoqchiman. A.Qodiriy bor yo'g'i 44-yil umr ko'rdi. Shundan atiga 20 yili qizg'in ijtimoiy faoliyat va badiiy ijodga bag'ishlandi. "Sadoiy Turkiston" gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida "Yangi masjid va maktab" sarlovhali xabar bilan matbuotda Qodiriy nomi paydo bo'ldi.

Oradan ko'p o'tmay "Millatimizga", "Ahvolimiz" she'rlari "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz", "Uloqda" hikoyalari matbuotda nashr etiladi. A.Qodiriy yozuvchi safida elga tanitgan ilk asarlari "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi" qissalaridir.

1919-1920-yillarida "O'tgan kunlar", 1928-yil "Mehrobdan chayon", 1934-yili qishloq hayotidan "Obid ketmon" romanlarini yozdi.

**O'qituvchi:** Nima uchun A.Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisi deb sanaladi.

**1-o'quvchi:** "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari bilan. A.Qodiriy o'zbek adabiyotida roman janrini eng oily nuqtaga olib chiqdi.

**2-o'quvchi:** "O'tgan kunlar" romaniga qadar ham undan keyin ham hech kim o'tgan asrda millat taqdiri uchun haton-mamot ahamiyatiga molik tarixiy hodisalari, o'lkaning mustaqillikdan mahrum bo'lib mustamlakachilik oldida taslim bo'lishiga olib kelgan omillarni A.Qodiriychalik chuqur, xolis, ta'sirchan, badiiy tahlil etgan asar yarata olgani yo'q.

**3-o'quvchi:** A.Qodiriy bu romanlari orqali real turmush manzaralarini san'at mulkiga, real haton haqiqatini chinakam badiiy harakatga aylantira olgan. Shuning uchun A.Qodiriy bu romanlari bilan xalq qalbida o'zbek adabiyotida, o'chmas iz qoldirdi.

**O'qituvchi:** Nafaqat o'zbek adabiyotida, uning yuksak qimmatga ega bo'gan asarlari jahon adabiyotida ham katta mavqega ega. Xususan bugungi darsimizda fikr yuritmoqchi bo'gan "O'tgan kunlar" romanini rus, ukrain, litviya, tatar, ozarbayjon, qozoq, tojik, turkman, uyg'ur, qoraqolpoq va nemis tillariga tarjima qilingan. Jumladan, 1968-yil Germaniyada "Toshkentlik sevishganlar" nomi bilan nashr qilingan. Bu roman orqali A.Qodiriy jahon tanigan. Buni biz adabiyotning buyuk daholari A.Qodiriy va uning asarlari haqida aytgan qimmatli fikrlaridan ham anglab olamiz.

**1-o'quvchi:** Filologiya fanlari doktori Izzat Sultonov A.Qodiriy ijodi haqida juda ko'p fikrlar bildirgan. Masalan: "A.Qodiriy o'zbek adabiyotida xuddi momiqaldiraqdek guldiros bilan kirib keldi va xuddi chaqmoqdek hammaning diqqatini o'ziga jalb etdi..."

**2-o'quvchi:** "Qismat" romaning muallifi turkman yozuvchisi Xidir Deryaev ham quyidagi fikrni aytgan "A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani menda bir umrga unutilmas ta'assurot qoldirgan va ilhom bag'ishlagan. Shundan keyin menga turkman xalqining o'tmishi haqida roman yozish ishtiyoqi tug'ildi va "Qismat" romani ustida ish boshladim".

**O'qituvchi:** Biz bularni kichik tatqiqotimizning debochasi sifatida qabul qilamiz. A.Qodiriy va uning asarlari haqidagi ma'lumotlar juda ham ko'p. O'qituvchi Bu ma'lumotlarni yigib oladi.

**O'qituvchi:** Bugungi mavzu shunday fikrlarga bevosita bog'liq. O'ylaymanki, barchangiz "O'tgan kunlar" romanini o'qigansiz, chunki bu romanni o'qimay turib, adabiyotni tushunish, adabiyotni yurakdan his qilish mushkul bo'lsa kerak. Bugungi darsimizda asar mazmumiga badiiy matning lisoniy tahlili orqali kirib boramiz. O'quvchilar, darsimizni munozara usuli asosida davom etamiz. Nima uchun Qodiriy bu romanni aynan "O'gan kunlar" deb nomladi ekan?

O'quvchilar erkin mulohaza yuritib munozara olib boradilar. O'qituvchi umumlashtirib bu fikrlarni to'lduradi. Chunki bu asar asosida pok muhabbat tuyg'ulari bilan bir qatorda xalqning, tariximizning eng kir, qora kunlari-yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan xon zomonalari

haqida bayon etilgan.

Qodiriy tarixning bu achchiq haqiqatidan xalqqa saboq bermoqchi bo'ladi. Menimcha, «Otgan kunlar» deb nomlanishida ramziy ma'no bor. Balkim A. Qodiriy bunday og'ir kunlarni o'tmishga aylanishini, tarix bo'lib ortda qolishini, bugungi kundek mustaqillik zamonasi kelishini orzu qilib «Otgan kunlar» deb nomlagandir. Endi asarning mavzusi va yozilish tarixi haqida suhbatlashamiz.

**1-o'quvchi:** «Otgan kunlar» romanining mavzusi haqida Qodiriyning o'zlari shunday yozadilar: «Moziyga qaytib ish ko'rish xayrli deydilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tgan kunlardan, tariximizning eng kir qora kunlari bo'lgan keyingi xon, zamonlaridan belgiladim».

**2-o'quvchi:** Qodiriy ijtimoiy, ijodiy faoliyatining ilk qadamlaridan pok Turkiston ziyolilari qatorida turib ona yurti, millatining taqdiri ustida qayg'urdi, o'zgacha hayot yo'lini izladi. Ayniqsa, Turkiston muxtoriyatining yakson etilishi A. Qodiriy ham larzaga soldi. Xuddi shu fojiali hodisa «Otgan kunlar» ning yozilishiga turtki bo'lishi mumkin.

**3-o'quvchi:** Men ham tikringizga qo'shilaman. Chunki bu kezlarda millatni uygotish, unga o'zligini, milliy qadryatlarini anglatish, xalqni ulug' maqsadlar sari safarbar qilish lozim edi. Bu roman orqali xalqning achchiq haqiqatdan sabob olishga undamochi bo'lgandir.

**O'qituvchi:** Barchangizning fikrlaringizga qo'shimcha qilib, A. Qodiriyning o'g'li Habibulla Qodiriyning «Otam haqida» asarida bayon etilgan quyidagi bir hikoyani so'zlab bermoqchiman: «Qariyb yarim umrini xon" zamonlarida yashagan otam o'tmish voqealari haqida so'zlab berar edi. Bu voqealar menda anashu –o'tmishimizdan g'arb romanchiligi asosida kattaroq bir asar yaratish havasini uygotdi. Tarixiy voqealar boshimda shu qadar edi - ki bu voqealarni qanday qilib ipga tuzishni bilmas edim. Kunlarning birida shahardan "bir chol mehmon bo'lib keldi. Otamning qadrdoni ekan. Mehmon qildik. Otam memnon bilan suhbat orasida so'radi: «Andijondagi xotiningizdan necha farzandingiz bor?» Ularning suhbatlaridan angladimki bu mehmon Toshkentlik bo'lib, uy-joyli ekan. Ammo yoshligida savdogarlik vaji bilan Andijonga borib u yerda ko'p yillar yashagan, uylanib bola-chqali bo'lgan ekan. Mehnonning ani shu soddagina tarixi menga chuvalangan ipning uchini topib bergan, yozuvchi bilgan romanning shaklini chizib bergan>>. Demak, bu roman hayotiy tajribalar, kuzatishlar asosida yaratilgan ekan.

**O'qituvchi:** Endi romandagi ba'zi timsollar haqida fikr yuritaylik. A. Qodiriy Kumushbibi timsolida eng ideal o'zbek qizini tasvirlagan. Shunday ekan, nima uchun Qodiriy bu qizni latofat sohibasiga aynan Kumushbibi deb ism qo'ydi ekan?

- **O'quvchi:** Kumush - ko'kish rangli yaltiroq qimmatbaho ma'danlardan biri. Bizning Kumushbibi ham aql - zakovati, husni latofati bilan hurmatga ega. Kumush biz o'zbek qizlari uchun ideal qahramon sanaladi. Beixtiyor unga nisbatan havas hissi qalbmizni qurshab oladi. Unga o'xshagimiz keladi, taqlid -ham qilamiz.

**2- o'quvchi:** Asardagi bir nuqtaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Otabekni ota - ona orzusi bilan Toshkentlik qizga unashtirilganini Kumush ota -onasidan bilgach Otabek yoniga kelib: «- Men rozi, men ko'ndin» dedi Kumush; bu so'zni nimadandir qo'rqqandek shoshib aytdi. Bu holatda taxlika ham, norozilik ham, alam ham, umid ham xullas ko'p tuyg'ular mujassam. Agar Kumush yig'lab - sixtab, piching qilganida u Kumush bo'lmas boshqa ayol bo'lar edi. Mana uning Kumushligi.

**3-o'quvchi :** Bu qahramonni Qodiriy Oltinbibi deb atasa ham bo'lar edi. Chunki u yuqorida aytib o'tilgan xislatlari bilan Oltinbibi deb nomlanishiga loyiq edi. Lekin uning qalbida kundoshlik g'arazi bor edi. Agar Kumush bibi qalbida kundoshlik g'arazi bo'lmaganda asar ishonchli chiqmas edi.

**O'qituvchi:** Oltinbibi deb nomlamaganlikning yana bir sababi bor «Oltin zanglamas» degan naql xalqimiz orasida keng tarqalgan. Demak Oltinbibi bo'lishi uchun bu qahramonimiz

hayotning barcha zarbalaridan omon - eson o'tib, baxtli hayot kechirar edi. Uning taqdiri esa fojeali yakun topdi.

Endi Otabek haqida tikrlarimizni bayon etaylik.

**1-o'quvchi:** Roman boshidayoq biz Otabekni uylanish oldida turgan ochik yigit va dunyo ko'rgan oq-qorani tanigan, el - yurt g'amida yurgan taraqqiyparvar siymo sifatida ko'ramiz.

**2- o'quvchi:** Otabek o'z ismiga monand, o'z davrining eng dono, aql- zakovatli, ko'pni ko'rgan oldi yigitlaridan, beklaridan bo'lgan. Otabek o'z yurti elining chin farzandi. U o'lkani jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari qatorida ko'rishni, ular tajribasidan baxramand bo'lishni istaydi.

**O'qituvchi :** Asarning bosh qahramonlaridan sanalgan Yusufbek xoji va O'zbek oyim haqida qanday fikrdasiz ?

**1-o'quvchi:** Yusuf adabiyotimizda go'zallik timsoli bo'lgan payg'ambardir. Unda tashqi va iski dunyo go'zalligi mujassamlashgan. Asarni o'qir ekanmiz Yusufbek xoji ham nuroniy chehrali, ichki dunyosi ham nurga to'lgan mo'ysafid kabi tasavvur qilamiz.

**2-o'quvchi:** Yusufbek xoji oq ko'ngil, qanoatli, kibrsiz, kamtar, gapni o'ylab, bosiq, sodda yoqimli so'zlaydigan, ayni paytda yurt dardi bilan yonib yashaydigan shaxs sifatida qalbimizdan o'rin olgan.

**O'qituvchi:** Romondagi barcha yuk Yusufbek xoji zimmasiga tushadi

A) oilada shunday muhitning yaratilishiga sababchi Yusufbek xoji;

B) xon saroydagi maslahatgo'y;

V) qipchoq qirg'inini to'xtatgan ham Yusufbek xoji;

G) xalqni Azizbekka qarshi isyon ko'tarishga undagan Yusufbek xoji.

Asarda bu kabi holatlarni juda ko'plab uchratish mumkin.

**3 - o'quvchi:** O'zbek oyim chala dumbul tabiatli, gapdon, shaxtso'z, bir uy xotinni o'z og'ziga qaratib o'tiradigan, uncha-munchani pisand qilmaydigan, o'zga ayollar uning soyasiga salom berib to'yda to'rni unga ataydiar. Shuning uchun Otabekning Marg'ilondan uylanishiga qarshi bo'lganligini tushunish mumkin. O'zbek oyim dumbul tabiatli ayol bo'lganidan Otabekning to'yga rozilik berganidan xursand. Ammo uning dilida kechayotgan qiynoqlardan mutlako bexabar.

**4 - o'quvchi :** Nima bo'lganda ham O'zbek oyim ona, tabiatidagi barcha ziddiyatlarga, kamchiliklarga qaramay u o'zbekning mag'rur va tanti onasi!. Shuning uchun ham A. Qodiriy unga O'zbek oyim deb ism bergan.

**5 - o'quvchi :** O'zbek oyim qotib qolgan qahramon emas. Voqealar jarayoni, -muhit ta'sirida uning ongida, tabiatida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Chunonchi, «Andi» deb nafratlanib yurgan Marg'ilonlik keliniga ilk bor duch kelganida mehri jo'shib, mahkam bag'riga bosadi, yuzidan o'pib negadir yig'lab yuboradi.

**O'qituvchi:** Biz Zaynabni salbiy qahramon deya olamizmi?

**1-o'quvchi:** Ha, chunki unda Kumshga nisbatan adovat, nafrat kundan kunga o'sib bordi. Kundoshlik muhitida bo'sh-bayov, mute Zaynab sekin asta haqini tanib qasoskorga aylandi. Zaynab Kumushning qotili. U bilib turib Kumushga zahar beradi.

**2-o'quvchi:** Zaynab o'z baxti uchun kurashgan jafokash ayol. Axir u ham odam, uning ham baxtli bo'lishga, baxti uchun kurashishga hakki bor. Ayol kishining rashki yomon, rashkidan ham qasdi yomon! Axir ayollik sha'ni, nafsoniyati tahqirlangan, javobsiz sevgi alamida yonib «Jonsiz haykal»ni quchib yig'laganida qasos alangasida yonmadimi.

**3-o'quvchi:** Zaynab murakkab timsol. Zaynabning qismati ruhiyatiga kirib borar ekanmiz, bu ayolga xhm oson emasligini anglab yetamiz. Xushro'y uning ko'zini ochmaganida bir umr g'idi-bidilar ichida Kumush bilan murosqa qilib yashayverar edimi. Zaynabning asosiy maqsadi Kumushni o'ldirish emas, Otabekka ega bo'lish edi.

**O'qituvchi:** Barchaning e'tiborini yana bir kahramonga qaratmoqchiman. Nima uchun

Hasanali Otabekning ma'naviy otasi sanaladi?

**1-o'quvchi:** Hasanali bolalik vaqtida erondan kishi o'g'irlab keluvchi bir turkman qo'lidan Otabekning bobosi 15 tilloga sotib olgan edi. Otabeklar oilasiga kelganiga chamasi 50 yillar bo'lib bu oilaning chin a'zosiga aylangan u Otabekka ixlos qo'yib o'z farzandidek ko'rar edi. Otabek ham uni hurmat qilib o'zining «Ma'naviy» otasi deb sanar edi.

**2-o'quvchi:** Hasanali 30 yoshli Oybodoqqa uylantirilgan bo'lsada farzand ko'rmagan. Adib Hasanali bu taqdirni atayin bitganga o'xshaydi. Chunki Hasanali qalbidagi bor mehr-muhabbatni yolg'iz Otabekka bag'ishladi. Shuning uchun ham uning ma'naviy otasi. Agar uning ham farzandi bo'lganda edi bu muhabbat ham ikkiga bo'linar edi.

**O'qituvchi:** Mana 85 yil bo'libdiki asar kitobxonlar e'tiborida. Nima uchun bu asar xalq qalbidan chuqur o'rin egallagan?

**1-o'quvchi:** O'sha yigirmanchi yillarda xalq «Tohir va Zuhro», «Yusuf va Zulayho» kabi afsonaviy kahramonlarga ko'nikkan edi. «O'tgan kunlar» romanida hayotiy voqealar, real, tirik odamlarni ko'rdi go'yo xalq bu roman orqali kuzguda o'z aksi namoyon bo'ldi.

**2-o'quvchi:** Bu milliy roman. Roman sodda, xalq tilida yozilgan. Uni savodsiz odamga aytib bersangiz tushunadi. Asarda milliy ruh hukmron. **O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar, barchani e'tiborini video tasmadagi quyidagi parchalarga qaratmoqchiman:

1. Kumushbibi uzatilayotgan kunida bo'lib o'tgan "qizlar majlisi" tasviri.
2. Kumushning ilk bora Toshkentga kelib qaynotasi bilan ko'rishgan lavhasi.
3. Kumushning zaharlanib ulim tushagida yotgan paytida Yusufbek hojining kirishi lavhasi. Bu lavhalar haqida o'quvchilar o'z fikr-mulohazalarini bayon etishadi.

**O'qituvchi:** Qodiriy asarlarida bunday manzaralarni juda ko'plab uchrashitimiz mumkin. Asar badiyatining rang-barangligini Kumushning Otabekka yozgan maktubi misolida ko'rib chiqaylik. Kumush timsolidagi bir o'quvchi maktubdan parcha o'qiydi. O'quvchilar esa bu matnni tahlil qilishadi.

**1-o'quvchi:** Qodiriy bu maktubda badiiy san'atlardan mohirona foydalangan. Shu parchaning o'zida «Irsola masal», «Tazod», «Kinoya», «Talmeh», «Tashbeh» san'atlarini keng qo'llagan.

**2-o'quvchi:** Qodiriy bu romanida xalq maqollaridan: «Umr - otigan o'q», «Teng tengi bilan, tezak qopi bilan», «O'tgan ishga salovat» kabilar; iboralardan; qo'y kabi yuvosh, el yelkasiga mindi, kalavaning uchini topib bermoq, ko'kka ko'tarmok, quloq solmoq kabilar bilan adib asar tilini bezagan.

**O'qituvchi:** Qodiriyning bu romani kirib bormagan xonadon bo'lmagani kabi Qodiriy haqida asar bitmagan ijodkor yo'q bo'lsa kerak Bularnig ayrimlari bilan tanishtirib o'tmoqchiman.

O'quvchilarga Qodiriy va «O'tgan kunlar» romaniga ishlangan rasmlarni ko'rsatiladi.

**O'qituvchi:** «O'tgan kunlar» haqidagi baxs- munozara orqali bilimimizni mustahkamlab oladik. Menig fikrimcha, Qodiriy bu asari orqali «Yomonlik jazosiz qolmaydi» degan goyani ilgari suradi. Kumushdek oqila juvonning qalbida kundoshiga nisbatan g'araz saqlanar edi.

Kundoshini ko'rgandan keyin uchirma gaplar aytib ering dilini vayron qilar edi.

Mana uning gunohi. O'zbeklarda odam o'ldirish eng og'ir jinoyat sanaladi. Otabek haq bo'lsada uch kishinig qotiliga aylandi mana shu gunohi uchun taqdir uni jazoladi.

Yusufbek hoji va O'zbekoyim bila turib o'z farzandlarini o'tga tashlaydi, uning baxtiga zomin buladilar. Mirzakarim Qutidor va Oftoboyim yakka-yu yagona qizlarini Toshkenga jo'natishga rozi bo'lmaydilar. Vaholanki, Otabek ham yolg'iz farzand edi. Zaynabning qilgan

gunohlari barchamiz uchun ma'lum. Bir soʻz bilan aytganda «Oʻtgan kunlar» romani haqiqiy hayot moʻjizasi. Oʻqituvchi dasrda faol ishtiorok etgan oʻquvchilarni baholab, eng zukko va topqir oʻquvchiga A. Qodiriyning «Oʻtgan kunlar» romanini taqdim etadi.